

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI




5140600 «Tarix» ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Pardayev Jurabek Mamayusufovichning

“Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va mavzu materiallarini o'rta maxsus kasb hunar ta'limi tizimida o'qitilishi” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi S.To'rayev




«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrasi mudiri

t.f.n., dots Z.A.Ilhomov

2014 y.

« 17 »



TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA.

Kirish	3
 I Bob: Respublikada ta'lim jarayonini isloh qilishga asos bo'lgan huquqiy me'yoriy hujjatlar.	
1.1 Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlarida, so'zlagan nutqlarida ta'lim sohasidagi ilgari surgan g'oyalari.....	7
1.2 Ta'lim jarayonining isloh qilinishiga doir me'yoriy hujjatlar.....	15
1.3 Ta'lim jarayoniga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarda tarix ta'limining o'rni.....	24
 II Bob: Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mavzusi bo'yicha o'quv materiallari talqini va o'qitilish ahvoli.	
2.4 Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'quv adabiyotlaridagi talqin.....	33
2.5 Ta'lim jarayonida mavzu materiallarini o'qitishda qo'llanilayotgan texnologiyalar.....	41
2.6 Mavzu bo'yicha samarali ta'lim berishga oid ta'lim texnologiyalari.....	50
 Xulosa	57
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar	59
Glossariy	65
 Ilovalar	

K I r I sh

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi- mustaqillik yillarida fanni rivojlantirish tarixiy tadqiqotlar natijasida xalqimizning, davlatimizning haqqoniy tarixini tiklash va ushbu tarix bilan xalqimizni qurollantirish davlat siyosatining ustuvor masalasiga aylandi. Prezident I.A.Karimov o'zlarining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asarida shunday deydi “Umuman, men fanni ilg'or, taraqqiyot, progres degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajakimizning shakli shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nilishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning avzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim”¹ deb xisoblaydi.

Hech kimga sir emaski, sobiq mustabit tuzumida XX asrning boshlarida Rossiyadagi oktyabr davlat to'ntarilishi va Turkistonda hokimiyatning zo'ravonlik bilan bolsheviklar tomonidan tortib olinishi sovet tarixshunosligida “ Buyuk inqilob “Insoniyat tarixida yangi davrning boshlanishi” sifatida noxolis, noilmiy talqin qilingan. Mustaqillikni qo'lga kiritilishi tufayli ko'p ming yillik boy tariximiz va madaniy merosimizni chuqur o'rganish, tadqiq qilish orqali ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ushbu tarix bilan o'quvchilarni qurollantirish bo'yicha ulkan imkoniyatlar paydo bo'ldi. Shu nuqtai nazardan butunlay yangicha mazmunga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb xunar ta'lim tizimida O'zbekiston tarixi fanida “sovet xokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar “ mavzusini o'quvchilarga zamonaviy pedagogik ta'lim texnologiyalar asosida ta'lim berish masalasini tadqiq qilish tarix fanining dolzarb masalalaridan hisobdanadi :

¹ Каримов.И.А “Тархий хотирасиз келажак йўқ, Адолатли жамият сари. Тошкент “Ўзбекистон” 1998, 58-саҳифа.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Istiqlol yillarida O'zbekiston respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan milliy istiqloq g'oyalari bilan sug'orilgan, olim va mutaxassislar tomonidan ko'plab O'zbekiston tarixiga oid o'quv adabiyotlar nashr etilgan².

Bu o'quv adabiyoti xalqimizni, o'quvchilarni ona vatanimiz tarixi bilan qurollantirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, kadrlar tayyorlash milliy Dasturi asosida ta'lim bosqichida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qonun va dasturni hayotga tadbqiq etish, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon bilan bog'liq, bir guruh olimlar mutaxassislar o'zlarining qarashlarini ifoda etgan ishlarini jamoatchilikka etkazdilar³. Ushbu yaratilgan zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan o'quv uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalarda ta'lim jarayonida qo'llash uchun berilayotgan texnologiyalar va ularning samaradorligi xaqida fikr yuritiladi.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarida O'zbekiston tarixini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish muntazam olimlar, pedagoglar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu masalaga oid Respublika, viloyatlar va Toshkent shahrida ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlar hamda seminarlar o'tkazilgan. Bu anjumanlarda tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalar hayotda qo'llanib kelinmoqda.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari: Ushbu tadqiqot ishini bajarishda: mavzuga oid o'quv adabiyotlari, materiallari, tadqiqot ishlari hamda

² Narzulla Jo'raev va boshqalar "O'zbekiston tarixi (Istiqlol davri) " Toshkent "Sharq", 1998. D.Alinova va boshqalar O'zbekistonning yangi tarixi. (1917-1991). Toshkent "Sharq" 2000; O'zbekistonning yangi tarixi seriyasida " Turkiston chor Rassiysi mustamlakichiligi davrida " , "O'zbekiston Sovet mustamlakichiligi davrida, mustaqil O'zbekiston tarixi" I,II,III jidlar Toshkent "Sharq" 2000; O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining no mutaxassis talabalari uchun darslik) . Prof. R.X.Murtozaeva raxbarligida Toshkent O".A.J.B.N.T. markazi. 2003.

³ J.G.Yo'ldoshev "Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari, muammolari, echimlari", "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent.2003-y., B.L.Faberman "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Toshkent 2009. Q.Ishmatov "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Namangan 2000. M.Kamoliddinov, B.Voxabjonov, "Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari.101 savolga 101 javob", innovatsion pedagogik texnologiyalar." R.Ishmuhammedov, A.AAbduqodirov, D.X.Pardayev "Ta'limda innovatsion texnologiya asoslari va uni o'qitishni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash. Toshkent 2012.

manbalarni o'rganish, o'rta mahsus kasb-hunar ta'limida mavzu materiallarini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalarini sarhisob qilish va o'qitishda samarali bo'lgan ta'lim texnologiyalarini tavsiya etish maqsad etib qo'yilgan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- Prezident I.A. Karimov asarlarida so'zlagan nutqlarida ta'lim sohasini rivojlantirishga oid ilgari surilgan g'oyalarni tadqiq qilish;
- Respublikada ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan o'rta mahsus kasb-hunar ta'limiga oid huquqiy me'yoriy hujjatlarni o'rganish;
- O'rta mahsus kasb-hunar ta'limidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda tarix o'quv predmetining mazmun mohiyatini tahlil qilish;
- O'zbekiston tarixi fanida sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni talqini mohiyatini yoritish;
- o'rta mahsus kasb-hunar ta'limida mavzu materiallarini o'qitishda qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalarini sarhisob qilish;
- O'quv predmetidagi mavzuga oid materillarni chuqur o'rganish ta'limda qo'llanilayotgan texnologiyalar hamda o'tkazilgan sinov darslari yakuniga ko'ra mavzu materiallarini samarali o'qitish bo'yicha tavsiyalar berishdan iboratdir.

Tadqiqotning ob'ekti: Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va mavzuni o'qitishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish, taqqoslash va tahlil qilish ushbu Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur o'rganish mavzuga oid ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar holatini o'rganish tadqiqotning predmeti sifatida belgilab olindi.

Tadqiqot ishining nazariy va uslubiy asoslari: Bitiruv malakaviy

ishini bajarishda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning tarixni tadqiq va talqin qilishga oid qimmatli go'yalari, ta'lim sohasini isloh etish xaqidagi nutqlari ham asarlarida ilgari surgan fikrlari asos qilib olindi.

Shuningdek, tadqiqot ishini bajarishda mavzuga oid materiallarni taqqoslash, tahlil qilish, ta'lim jarayonida qo'llash orqali umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: Mavzu bo'yicha o'quv adabiyotlaridagi materiallar, manbalarni taqqoslab tahlil qilishni, mutaxassislarga ushbu mavzu materiallari bo'yicha aniq yo'nalishlar tasavvurlar berish ishning amaliy ahamiyatini tashkil etadi. Mavzu materiallari bo'yicha o'rta mahsus kasb-hunar ta'limida o'quvchilarga ta'lim berishda tavsiya etilayotgan ilg'or texnologiyalar tadqiqoti ishini amaliy ahamiyatini tashkil qilib, o'quvchilarga samarali ta'lim berishga xizmat qiladi.

I BOB: RESPUBLIKADA TA'LIM SOHASINI ISLOH QILISHGA ASOS BO'LGAN G'OYALAR VA HUQUQIY ME'YORIY HUJJATLAR.

1.1 Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlarida, so'zlagan nutqlarida ta'lim sohasidagi ilgari surilgan go'yalari.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan demokratik, huquqiy hamda fuqarolik jamiyati barpo etish, bozor munosabatlariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, uni umuminsoniy qadriyatlar bilan mushtarak ravishda rivojlantirib, jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini tanladi hamda unga izchillik bilan amal qilib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, jamiyatimizning barcha soxalarida amalga oshirilayotgan islohatlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, zamonaviy fan va texnika yutuqlari bilan qurollangan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir.

„Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, -deydi I.A.Karimov, - qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxiri-oqibat kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajakimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'rnimizga kim kelishi yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq’’⁴

Hur O'zbekistonda boshlangan tub o'zgarishlar yurtboshimiz nomi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining qonuniy yo'l bilan saylangan birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov yangi o'zbek uyg'onish - „Renessans’’ davrini boshlab bergan davlat arbobidir. Istiqlool tufayli biz o'zimizga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlab oldik. Yangi o'zbek milliy

⁴ Karimov I.A O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. „O'zbekiston’’ 1999, 18-sahifa

uyg'onish mamlakatimizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyamizda, yangi kodeks va qonunimizda kun sayin shakllanib, taraqqiy etib borayotgan milliy mafkuramizda namoyon bo'lmoqda. Yutboshimiz mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos va mos yangilanishi va taraqqiyot yo'lini eng avvalo, aholi hayotini milliy va tarixiy xususiyati, tafakkur va turmush tarzi, xalq an'anlari va urf-odatlarini jumladan ta'lim masalasiga oid go'yalarini "O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li" asarida ilk bor ilgari surgan. „Hozir,- deydi I.A.Karimov, - bizning jamiyatimiz tarixiy chorrahada turibdi. Respublikada milliy davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol topdiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqarishimiz zarur. Bu murakkab va mas'uliyatli palladir. Hozir yashab turganlarning taqdiriga emas, balki ularning farzandlari,, navaralarining ham taqdiri, kelajak avlodning taqdiri shunga bog'liq bo'ladi. Respublika tang xolatlarni qay darajada tezroq bartaraf etishi, yakkahokimlik tuzumining illatlarini batamom tugatish, rivojlangan taraqqiyotli mamlakatlar darajasiga chiqib olish shu narsa bilan bog'liqdir. Biz hozir uzoq yo'lning boshida turibmiz”⁵. Ta'lim sohasida islohatlar, uning mohiyati va qonuniy asoslarini yurtboshimizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilgan kunimizning 1 yilligi tantanalarida so'zlagan nutqida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan bu ma'ruzada: “Bizdan keyin ham shu yerda yashagan farzandalarimiz va nabiralarimiz, dunyoga keladigan avlodlarimizning taqdiri ham biz qanday davlat qurishimizga bog'liqdir. Biz qurgan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushi, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatimiz va ma'naviyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy axloqiy barkomilligini ta'minlashi kerak “deydi.⁶ Ta'lim jarayonini tubdan yangilash. Sobiq tuzum davridagi „mafkurachilik”, „partiyaviylik”, „sinfiylik”

⁵ Karimov I.A O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li. O'zbekiston: milliy istiqloli, iqtisod, siyosat, mafkura T.I.Y., O'zbekiston” 1996, 39-sahifa.

⁶ Karimov I.A O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. O'zbekiston: milliy istiqloli, iqtisod, siyosat, mafkura T.I.Y., O'zbekiston” 1996, 124-sahifa.

tamoyillaridan holi bo'lgan, mohiyatida umumbashariy va milliy qadriyatlarni e'zozlagan ta'lim tizimini yaratish istiqlolning dastlabki kunlaridanoq davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida kun tartibimizga qo'ydi. Sog'lom avlod, farzandlarni har jihatdan etuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ularga kelajagimiz egalari deb qarash xalq kelajagiga bevosita daxldor masala sifatida istiqlol siyosatining uzviy qismiga aylangani ham mohiyat e'tibori bilan shu ezgu maqsadga xizmat qilishi tabiiy holdir. Shuning uchun istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan islohatlarda "islohatlar – islohatlar uchun emas - islohatlar inson uchun" tamoyiliga amal qilgan holda sog'lom avlod tarbiyasi masalasi ta'lim-tarbiya sohasidagi olib borilayotgan ishimizning ustuvor masalasiga aylangan. Bu haqda yurt boshimizning „O'zbekistonning kelajagiga ishonchim komil"- nomli Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligidagi xorijiy muhbirlar xorijiy uyushmasi a'zolaridan Toshkentda 1993-yil 4-mart kuni bo'lib o'tgan suxbatida shunday deyilgan:- Biz naslimiz sog'lom bo'lishni ta'minlashni o'zimizda buyuk maqsad qilib oldik. Dunyoga birinchi bo'lib O'zbekiston „Sog'lom avlod uchun" degan ikkinchi darajali orden ta'sis etdi. Bizning vazifamiz – eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib olish. Jismoniy, ma'naviy, moddiy jihatdan sog'lom avlodsiz bunga erishib bo'lmaydi"⁷. Bu ilgari surilgan g'oyadan shuni anglash mumkinki sog'lom deyilganda faqat jismoniy baquvvat farzandlarni emas, ma'naviy boy, o'zligini chuqur anglagan avlod tushuniladi. Shunday ekan Prezident I.A.Karimovning sog'lom avlod haqidagi g'oyalari ta'lim sohasidagi islohatlarning asosiy masalalaridan xisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiy siyosatda bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanlab oldi. Biroq har qanday shavqatsiz bozor sharoitida ijtimoiy soha davlat siyosatida e'tiborda tutgan masala sifatida turadi. Bu haqda yurtboshimiz Oliy Kengashning XIII sesiyasida so'zlagan nutqida

⁷Karimov I.A O'zbekistonning kelajaki buyukligiga ishonchim komil. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T.I.Y., O'zbekiston" 1996, 163-sahifa.

shunday deydi: „Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy soha – sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, ma'daniyat va san'at mushkul ahvolga tushib qoladi. Biz uchun ma'naviy tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ahloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash asosiy ustuvor masala ekan, hozirgi murakkab davrda mazkur tarmoqlarni qo'llab quvatlash, ularda ishlovchi odamlarning mehnatiga munosib baho berish, ularning ijtimoiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart - sharoit yaratish zarur”⁸.

Mustaqillik yillarda ta'lim jarayonini isloh qilishga yo'naltirilgan rejalar qabul qilindi. Bu hayirli, ezgu ishlarni ro'yobga chiqarishga davlat byudjeti xisobidan salmoqli sarmoyalar ajratildi. Biroq jarayondagilar har doim kutilganidek bo'lavermadi. Bu haqda Prezident I.A.Karimovning Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashi sessiyasida 1993-yil 9-oktyabrda so'zlagan nutqida quyidagi fikrlari diqqatga sazovor „Xalq ta'limi va maktabgacha tarbiya muassalarida jiddiy kamchiliklar bartaraf etilmayotir. Maktab, kasb xunar-texnika, bilim yurtlari va maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya berish shu tizimga qo'yilgan talablarga javob bermaydi. O'qitish hamon eskicha. Umumiy ta'lim maktablarida 100 dan ortiq fan o'qituvchilari yetishmaydi”⁹.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlardan ko'zlangan maqsad, O'zbekistonning ertangi kuni ma'naviy – madaniy barkamol, ruxan tetik, mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega, zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti talablarga mos, kasb-kor mahoratini o'zida mujassam etgan g'ururi baland, iymoni butun, irodasi baquvvat, chinakam vatanparvar, insofli va oriyatli insonlarni tarbiyalashdan iborat. Bu haqda yurtboshimiz Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashining 1996-yil 2-noyabrdagi sessiyasida shunday degan edilar: „Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh

⁸ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. // Bizdn ozod va obod vatan qolsin. T., „Uzgon”1996, T-2, 15-sahifa.

⁹ Karimov I.A. Vatan, el manfaati- muqaddasdir. // O'sha manba 63-sahigasi.

avlodni boy madaniy merosimiz haqida tarixiy qadryatlarimizga xurmat-etibor, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizda mushkul vazifalarini qo'ymoqda.¹⁰

Ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini jamiyatimizning iqtisodiy va ma'naviy istiqboli bilan uyg'unlashtirish bozor masalalaridan hisoblanadi. Tajribadan ma'lumki, insonning, xalqning, jamiyatning kuch g'ayrati fuqarolarning ma'naviy ma'rifiy saviyasi darajasi bilan boshlanadi. Xalq deputatlari Farg'ona viloyati kengashining navbatdan tashqari 1997-14-fevral sesiyasida „Yangilikka intilib yashash-taraqqiyot garovi“ mavzusidagi ma'ruzasida: „Ma'rifat madaniyatga olib keladigan yo'l, deya ta'kidlaydi.

Bugun qilayotgan yaxshi ishlarimiz kelasi avlod barkamolligi uchun xizmat qilishi shubxasiz. Bugun qanday ko'chat qo'ysak, ertaga shunday meva olamiz. Yosh avlodni el yurtga vatanga sadoqatli, iymon e'tiqodli, mard va jasur, yuqori ma'lakali, ma'naviy yuksak, inson qilib tarbiyalashda ta'lim o'choqlarining alohida o'rni bor.”¹¹ degan edi. Prezident I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasining “Talim to'g'risida”gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy Dasturining yurtboshimiz tashabbusi bilan qabul qilinishi bu sohadagi amalga oshirilayotgan ishlarning munosib asosini tashkil etadi. „Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishturguncha intilish bizning milliy xususyatlarimizdir”¹² – deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz „Ta'lim to'g'risida”gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingan Oliy majlisning 1997-yil 27-avgustidagi so'zlagan nutqida. Xalqimiz qadim-qadim zamonlardan ilmga – ziyoga intilib yashab kelganligi tarixdan ma'lum. Har biro ota-ona farzandini tug'ilgan kunidan boshlab, unga yxshi ism qo'yish, ta'lim tarbiya orqali

¹⁰ Karimov I.A. Halol vayash va halol mehnat qilish – burchimizdir. Yangicha yashash va fikrlash davr talabi. Toshkent. „O'zbekiston” 1997 yil 5tom. 222-sahifa

¹¹ Karimov I.A. Yaxshilikka intilib yashash- taraqqiyot garovi. // Yangicha fikrlash va ushlash davr talabi. Toshkent. „O'zbekiston” 1997-yil 5-tom. 350-351-sahifa.

¹² Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotinig poydevori. Toshkent 1997- yil 4-sahifa.

farzandining kamolini ko'rishni istaydi. Shunday ta'lim tizimidagi tartib, undagi mavjud imkoniyatlar shaxsning har tomonlama yetuk komil insonlar bo'lib etishishiga xizmat qilish lozim shu nuqtai nazardan qonun va milliy dasturning mamlakatlarimiz ta'lim tizimi uchun ahamiyati beqisoydir. Yoshlarni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda ta'lim muassalarining o'rni va roli shak – shubhasiz kattadir, maktab yoshlariga bilim asoslarini singdiradi. U yoshlarining ilmiy dunyo qarashini shakllantirishini va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. „Maktab sohasidagi, “Ta'lim haqida” qonun qabul qildik. 1996-1997-o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinifga o'qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi”¹³ – deb ta'kidlagan edi, Oliy majlisning IX sessiyasida yurtboshimiz. Maktab yoshlar uchun bilim maskani balki tarbiya o'chog'i hamdir. O'sib kelayotgan yosh avlod milliy uyg'onish mafkurasi, yuksak fuqarolik, o'z xalqiga xizmat qilish, inson huquq va erkinliklariga rioya etish ruhida tarbiyalash maktabning asosiy vazifasi xisoblanadi. Maktab o'quvchilari jamiyatimizning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlardan, oldimizda turgan muammolardan xabardor bo'lishi lozim.

Preziden I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: „Taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji maktab o'quvchilariga mo'ljallangan maxsus dasturlar, qo'llanmalar, ommabob adabiyotlar yaratish taqazo etmoqda , chunki hozirda maktab o'quvchisi yoki maktabdan mana shu masalalar haqida fikr sursangiz, izchil, aniq, atroflicha javob berishga, kerak bo'lsa o'z fikrini

¹³ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotinig poydevori. Toshkent 1997 yil 5-sahifa

isbotlab berishga qiynaladi. O'ylaymanki, bu oldimizdagi eng muhim masalalardan biridir¹⁴.

Jamiyatimiz qurilishida, iqtisodiyotimiz va ma'naviyatimiz shakllantirishda mutlaqo yangi – yangi kadrlar qo'shilmoqda, zamon talablariga hamohang tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ammo “maktab va o'quv yurtlarida bolalarimizga, ertaga bizning o'rnimizni bosishi lozim bo'lgan o'z farzandlarimizga daqqi-yunusdan qolgan darslik va kitoblar asosida bilim va tarbiya bermoqdamiz. Bunday achinarli holatlarga barham berish vaqti keldi¹⁵” deydi Prezident I.Karimov.

Yoshlar tarbiyasi, ularning dunyo qarashi, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ijtimoiy-siyosiy faolligi ko'p jihatdan oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlar faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan, texnika, va texnologiyalarni rivojlantirish asosida malakali mutaxassislar tayyorlashning takmillashgan tizmini yaratish hozirgi vaqtda mamlakat taraqqiyotining muhim sharti xisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining qabul qilinishi va izchillik bilan hayotga tatbiq etilishi mazkur masalani ijobiy tatbiq etilishda muhim ro'l o'ynamoqda.

Ta'lim sohasidagi islohatlar tufayli nimalarga erishdik?

Birinchidan: „mafkurachilik“, „sinfiylik“ kabi soha tamoyillardan bo'linmay holi bo'lgan, mulkiy qadryatlarimiz, an'analarimizga asoslangan, jahon tamoyillariga ilg'or tajribalarini o'ziga mujassamlashtirgan ta'lim tizimiga ega bo'ldik.

Ikkinchidan: Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: „... bizga sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimining eng nomaqul tomoni shundan iborat ediki, unga o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarning mustaqil

¹⁴ Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Xalq so'zi" gazetasida, 2000 yil 10 iyun soni.

¹⁵ Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Xalq so'zi" gazetasida, 2000 yil 10 iyun soni.

va erkin fikrlariga yo'l qo'yilmas edi''¹⁶ bu illatdan biz butunlay xoli bo'lishga erishdik;

Uchinchidan: Mustaqillik yillarda barcha shart – sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy ta'lim muassalariga tashkil etildiki, bu o'zgarishlar ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan izchil Davlat siyosatining xotimasidir.

To'rtinchidan: Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi sifatida mamlakatimizda 2004-2009 yillarda maktab ta'limi rivojlantirish umum milliy dasturi qabul qilinib amalga joriy etildi.

Beshinchidan: Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishdik, Hech kimdan kam bo'lmaydigan, hayot barpo etish, yoshlarimizning, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak Hech qanday xato bo'lmaydi''¹⁷.

Shunday qilib istiqlol yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ta'lim sohasidagi islohatlar jaroyanida erishilgan natijalar yurtboshimiz I.A.Karimovning tashabbuslari va amalga oshirgan ishlari bilan chanbarchas bog'liqdir.

¹⁶ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent , Ma'naviyat'' 2008 yil, 62-sahifa.

¹⁷ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent , Ma'naviyat'' 2008 yil, 64 sahifa.

1.2. Ta'lim jarayoninig isloh qilinishiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

O'zbekistonda istiqlolning dastlabki kunlaridanoq ta'lim tizimini isloh qilishga mo'ljallangan qator huquqiy- me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizning Bosh qomusi bo'lgan O'zbekiston Reapublikasi Konstitutsiyasining IX bob 41- moddasida shunday deyiladi: „ Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish Davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari Davlat nazoratidadir”¹⁸. Ushbu badda har kimning bilim olish huquqi qonun bilan kafolatlangan ekan, ushbu jaroyonni amalga oshirishga qaratilgan qator qonunlar va qarorlar qabul qilingan. Hech kimga sir emaski istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda “Ta'lim haqida qonun” qabul qilindi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek ushbu qonun qabul qilingandan so'ng 300 ga yaqin yangi ta'lim muassalari ochildi, Oliy O'quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etildi, 800 ga yaqin yangi o'quvchi chet ellarda ta'lim oldi, ko'pgina o'qituvchilar xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida chet mamlakatlariga borib qaytdi”¹⁹. Biroq amalga oshirilgan ishlarning natijalarini xolisona sarxisob qiladigan bo'lsak, bu soxada amalga oshiriladigan zamon talabi darajasida emasligini ko'rish mumkin. „ Avvalo shuni ta'kidlashimiz kerakki, biz eski, sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim – tarbiya tizimiga mos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xali beri to'liq qutilganimiz yo'q.

Ikkinchidan, barcha amaldagi o'zgarishlar va tadbirlar, asosan yuzaki bo'lib, ta'lim tarbiya va o'quv jaroyonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim – tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini echib bergan emas.

¹⁸.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Asosiy qonun. Toshkent “O'zbekiston” 2012-yil. 9-sahifa.

¹⁹ Karimov I.A Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997-yil 6-sahifa.

Uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy etgan demokratik davlatlar talablariga javob bermasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinmoqda"²⁰ deb ta'kidlagandilar yurtboshimiz Oliy Kengashning IX sessiyasida so'zlagan nutqida: Bu kamchiliklarga barham berish, ta'lim sohasidagi islohatlarning samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yurtboshimizning tashabbusi bilan 1997-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq, ta'lim tizimini isloh qilish kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o'zgartirishlarni kiritish maqsadida maxsus hukumat komissiyasi tuziladi. Tegishli vazirlik va idoralar, olimlar va mutaxassislarning sa'yi harakatlari tufayli milliy dasturning ilk loyiha variant tayyorlandi va Oliy Majlis deputatlari muhokamasiga qo'yildi.

Ushbu tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan xujjatlar haqida Prezident I.A.Karimov: „Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar, Albatta, bilim kerak. Ammo ilm o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash katta boylikdir“.²¹ degan edi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va „Ta'lim to'g'risida“ gi qonunni hayotga tadbiq etish katta mehnat va mablag'ni talab qiladigan jarayondir.

Mutaxassislar va olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ushbu dasturni amalga oshirish taxminan 65 mlrd so'm mablag'ni tashkil etadi. „Ko'rib turubsizki, xalq ta'limini isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag' va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin istiqbolimiz ko'zi bilan qaraganda, ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy nuqta'i nazaridan bu sarf xarajatlarga nazar tashlasa, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar. Ishonchim komilki,

²⁰ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997 yil 6-sahifa.

²¹.KarimovI.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997 yil 9-sahifa

O'zbekistonning bugungi salohiyati va iqtisodiy holati, xalqimizning aql zakovati va irodasi bu o'ta masuliyatli, ish bilan birga, sharaflı, oddiy til bilan aytganda, yurtimizning faravon va baxtli kelajagini hal qiluvchi vazifani muvaffaqiyatli ado etishga zamin va imkon beradi"²² deb ta'kidladi Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida. 1997-yil 29-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to'g'risida“ qonun qabul qiladi. Ushbu xujjat to'g'risida Oliy Majlis: Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini tasdiqlash va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish yuzasidan Kompleks tadbirlar rejasini ishlab chiqib amalga oshirsin. Davlat Byudjetini tasdiqlashda milliy dasturning moliyaviy va moddiy ta'minotiga alohida etibor berilsin"²³ deb qaror qabul qiladi.

Mavjud ta'lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlod tarbiyalash maqsadida, „Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasi 1997-yil 6-oktyabr kuni farmoni e'lon qilinadi. Ushbu farmonda: “1. „Ta'lim to'g'risida“gi qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni xayotga tadbıq etish Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb xisoblanadi. Respublikada ta'lim – tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish va bu borada qabul qilingan hujjatlar mohiyatini jamoatchilik tomonidan keng anglab olinishiga har tomonlama sharoit yaratish davlat bosqaruvi, huquqni muhofaza qilish idoralari, ta'lim tarbiya muassasa

²². Karimov.I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotinig poydevori.
Toshkent 1997 yil19-sahifa.

²³. O'zbekiston Respublikasi qonuni „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida“ .Toshkent. 1997 yil . 29 avgust.

xodimlarining eng dolzarb vazifalari deb belgilangan”²⁴ deyiladi farmonda. O‘zbekiston Respublikasining „Ta‘lim to‘g‘risida” qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi muhim jihatlardan biri, bu ta‘limning uzluksizligidir. Bu masala ta‘limning milliy modelini shakllantirish masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu masalani hal qilish uchun O‘zbekistonda bevosita o‘zimizga xos, o‘zimizga mos bo‘lgan, takrorlanmas bo‘lgan tariximiz, an‘analarimizga asoslangan va shu bilan birga xozirgi davr talablariga javob bera oladigan Kadrlar tayyorlash milliy modeliyaratildi. Uzluksiz ta‘lim – milliy modelimizning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Unga ko‘ra mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimida faoliyat olib borish davlat ta‘lim samaradorligi ta‘lim dasturining izchilligi asosida ta‘minlanadi. Uzluksiz ta‘lim quyidagi ta‘lim turlarini o‘z ichiga oladi: , maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta‘limdir”²⁵.

Maktabgacha ta‘lim tizimi – bolalarni maktabga tayyorlash bilan birga, uni sog‘lom o‘shishini ta‘minlaydi, muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi, unga o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi. Ushu huquqiy meyoriy hujjatlarga ko‘ra, butunlay yangicha mazmundagi 9 yillik umumiy o‘rta ta‘lim tizimining joriy etilishi bo‘ldi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tarkibiy qismi bo‘lgan uzluksiz ta‘lim tizimiga kiritilgan uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar tizimining joriy etilishi tom ma‘nodagi yangilik bo‘ldi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998-yil 24-oktyabrda „ Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Respublikamizda akademik

²⁴. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „ Ta‘lim tarbiya va Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish barkamol avlod voyaga yetkazish to‘g‘risida” .Toshkent. 1997 yil, 6 oktyabr.

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi qonuni „ Ta‘lim to‘g‘risida”gi Toshkent 1997 yil, II bob , 10 modda, 3-saifa

litseylar va kasb hunar kollejlari ta'lim jarayonining tashkil etish maqsadida muhim huquqiy – me'yoriy xujjatlar qabul qilindi.²⁶

O'rta maxsus, kasb – hunar ta'limining Davlat ta'limi standartlari ishlab chiqishda quyidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar asos qilib olinadi:

– „Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni;

-O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umum ta'lim fanlari” – O'zbekiston davlat Standartlari. (ushbu qaror 2 ilova).

– „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining „Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlari ishlab chiqish va amalga joriy etish to'g'risida” 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining „O'zbekiston respublikasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida” 1998-yil 13-maydagi 204-qarori;

– O'Z DST 1.0-98. „O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi, Asosiy qoidalar;

– O'Z DST 1.1 – 92. „O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish Davlat tizimi, O'zbekiston Respublikasi standartlashtirishni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, maqsadlari va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari”;

– O'Z DST 1.10 – 93. „O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar.

– O'Z DST 1.5 – 93. „Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ishlar olib borish qoidalari. Standartlashtirish tizimi, bayon etish, rasmiylashtirish,

²⁶. „O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000-yil, 26-oktyabr qarori, Akademik litsey uchun tayanch o'quv rejasi, kasb-hunar kollelari uchun tayanch o'quv reja. (ushbu qarorning 1 va 2 ilovalari, ”o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari” O'zbekiston Davlat standartlari (o'sha qaror 2-ilova.)

va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar.

- O'Z DST 1.8 – 94. , O'zbekiston Respublikasining Standartlashtirish davlat tizimi. Etakchi hujjatlar va tavsiyalarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartiblari” ;
- O'Z DST 1.8 – 95. , O'zbekiston Respublikasining Standartlashtirish davlat tizimi. Soxa standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartiblari” ;
- O'Z DST 1.8 – 94. , O'zbekiston Respublikasining Standartlashtirish davlat tizimi. Amal qiladigan xujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, Davlat ro'yhatidan o'tkazish tartibi va tavsiyalar;
- O'Z DST 6.01.1 – 95 O'zbekiston Respublikasi texnik iqtisodiy va ijtimoiy axbobotlari kodlash va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar;
- O'Z DST 6.01.1 – 95 O'zbekiston Respublikasi texnik iqtisodiy va ijtimoiy axbobotlari kodlash va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar;
- O'Z DST 6.01.2 – 95 O'zbekiston Respublikasi texnik iqtisodiy va ijtimoiy axbobotlari kodlash va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflashlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.²⁷

Ushbu o'sha huquqiy m'eyoriy hujjatlarda standartga quyidagicha ta'rif beriladi: „ ...1.3.2 O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKXT) tarmoq standarti malaka talablariga mos xolda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va kasb-hunr bo'yicha ta'lim mazmunining va so'ngi maqsadlarga, o'quv yuklamalarini xajmini aniqlovchi xolda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi meyoriy hujjat”²⁸.

²⁷. O'rta maxsus kasb hunar ta'limining umum ta'lim fanlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasuri. Toshkent. „Sharq” 2001 yil, 7-8 sahifalar.

²⁸. O'rta maxsus kasb hunar ta'limining umum ta'lim fanlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasuri. Toshkent. „Sharq” 2001 yil, 9-sahifa.

Ta'lim tizimi o'z mohiyatiga ko'ra butunlay yangidan. O'rta maxsus kasb hunar ta'limiga oid huquqiy meyoriy hujjatlarda, jumladan davlat ta'limi standartida ushbu jarayonni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan.

„ 1.4.1 O'MKXT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi;

- O'MKXT ning yuksak sifatini xamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisod va ijtimoiy islohatlarni, rivojlangan Demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti izchil boshlaridan jamiyat ehtiyojlaridan, fan texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- O'MKXT ning demokratlashtiruvi, insonparlashuvi, va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va ijtimoiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayonini samaradorligini noshirish;
- Sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- Kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baxolash mezonlarini va uzluksizligini ta'minlash;
- Mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash;

1.4.2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- O'rta maxsus kasb hunar ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- O'rta maxsus kasb hunarga va uning pirovard natijalariga, ta'lim rivojining bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti vaqti bilan baxolash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga

nisbatan quyiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy negizni yaratish;

- Xalqning boy aql zakovat merosi va umuminsoniy kadrlar asosida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarni malakasiga nisbatan me'yorlar va talablar belgilash;
- Kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim , fan va ishlab chiqarishning samarali intaegratsiyasini ta'minlash”²⁹.
- O'rta maxsus kasb hunar ta'limini isloh qilishga oid huquqiy me'yoriy hujjatlarni yaratish uzoq yillar mobaynida intilgan ta'lim sohasidagi muammolarni hal etishni ko'zda tutadi.
- Shuning uchun ham bu og'ir ma'suliyatli ammo hal qilishni paysalga solib bo'lmaydigan ishni bosqichma-bosqich zudlik bilan bajarishni taqazo etadi. „ Ishonchim komil: -- deydi I.A.Karimov agar bu islohotni muvaffaqiyatli amalga oshiraolsak tez orada biz xayotimizda ijobiy ma'nodagi portlash effektiga, ya'ni uning samaradorligiga erishamiz. Bu nima degani?

Birinchidan: ijtimoiy – siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada malakaimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi.

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli tushgach, insonning hayotdagi o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida endigina voyaga yetib kelayotgan davrda jamiyatdan munosib o'rnini topishi kerak”³⁰.

Ta'lim jarayonini isloh qilishga kerakli huquqiy me'yoriy hujjatlar; ta'limning zamonaviy modelini tashkil etadi. Ushu ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun,

²⁹ . O'rta maxsus kasb hunar ta'limining umumta'lim fikrlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. Toshkent „, Sharq” 2001 yil 01-11 sahifa

³⁰ . Karimov .A Barkamol avlod orzusi Toshkent „Sharq” 2000-yil 107-sahifa.

hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatlarini paydo qilish. Bu jarayonning amalga oshishi shaxsning ongli turmush kechirishi hayot mezoniga aylanadi.

Ta'limning yangi modeli hayotimizdagi barcha kuch, imkoniyatlarimizni ishga solish, qo'yilgan vazifalarni samarali va sidqi dildan bajarish imkoniyatlarini yaratadi. Jamiyatda har bir insonning Alloh bergan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratilsa, inson tafakkuri xar xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida Prezident I.A.Karimov tashabbuslari va g'oyalari asosida zamonaviy ta'lim samarali tarbiya berishning zamon talablariga to'liq javob bera oladigan, jahon hamjamiyati tomonidan etirof etilgan ta'limga oid Respublikamizda muhim huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

1.3 Ta'lim jarayoniga oid huquqiy – me'yoriy hujjatlarda tarix ta'limining o'rni.

XX asrning so'ngi o'n yilligida O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi, ko'p ming yillik xalqimiz, davlatimiz tarixida yangi davrni – mustaqillik davrini boshlab berdi. O'zbekistonda yurtboshimiz tashabbusi bilan mustaqillikni mustahkamlash, huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, yo'li tanlab olindi. Ushbu strategik yo'lni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish jarayoni boshlandi. Bu islohotlarning samarali bo'lishi, Vatanimizning qudratini kuchli bo'lishi, ko'p jihatdan jamiyat a'zolarining ma'naviyatli bo'lishiga, tariximizni, boy madaniy merosimizni bilishga bog'liqdir. Hech kimga sir emaski, mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq, o'zimizni bilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj ko'p ming yillik tariximizni, bilishga katta qiziqish uyg'otdi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: odamzod borki avlod – ajdodi kimligi, nasl-nasabi, o'zi tug'ulib voyaga yetgan qishlog'i, shahar xullas, vatanning tarixini bilishni istaydi.”³¹. Shunday ekan ota bobomizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalarini o'rganishga ulkan uimkoniyatlar yaratildi. Shuning uchun sho'rolar davrida yaratilgan tarixga oid adabiyotlardan voz kechishga to'g'ri keldi., Chunki, o'zingizga ma'lum sho'rolar zamonida, tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'bantirilmas edi, hukmron tabaqalariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanar edi. Ahvol shu darajaga boragan edi, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qolgan edik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsligini o'qir edik..... Sovet davrida yozilgan tarixni men

³¹.Karimov.I.A. „Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Adolatyli jamioyat sari” Toshkent , O'zbekiston” 1998 yil, 31-sahifa.

tarix sanamayman”³² degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov. Masalani bunday muhim va dolzarb qilib umumiy o’rta, o’rta maxsus kasb hunar ta’limi tizimidagi tarix o’quv tizimidagi tarix o’quv predmetining mazmunini butunlay yangilashga to’g’ri keldi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining, Umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’limi standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 16-avgust 1999-yil qaroriga umumiy o’rta ta’lim maktablarida tarix o’quv predmetining mazmun va o’quvchilar egallashlari lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar belgilab berilgan. Bunga ko’ra:

„ – jahon va O’zbekiston tarixining davrlar va ijtimoiy tuzumlar, ularning atalishi va ularga xos xususiyatlar haqida tasavvurga ega bo’lish;

- Asr, yil hisobini bilish, tarixiy voqea va xodisalarning davomiyligi, ularning qaysi davrda munosibligini ayta olish, eramizdan oldingi asrlarni hisoblay olish;
- Insoniyat doimo oldinga intilayotgani, bu esa tarixiy taraqqiyotning asosi bo’lganligini anglash;
- Jamiyatda va dunyoda kechayotgan jarayonlarga o’zining mustaqil munosabatini bildiradi olish;
- Tarixiy manbalarni o’rganish orqali xulosalar chiqaro olish;
- Tarixiy jarayonlar haqida ma’lumotga ega bo’lish va siyosiy tahlil qila olish;
- Bobomiz Amir Temurning jahon tarixida tutgan o’rni haqida bilimga ega bo’lish;
- O’rta Osiyo xonliklarining ijtimoiy va iqtisodiy va madaniy hayoti haqida bilimlarga ega bo’lish;
- O’rta Osiyo xonliklaridagi feodal munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi haqida ma’lumotlarga ega o’lish;

³² Karimov.I.A. „Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Adolatli jamioyat sari” Toshkent , O’zbekiston” 1998 yil, 32,33,39-sahifalar.

- Rossiya bosqini, uning beshavqat generallari va ularga qarshi kurashgan vatanparvar sarkardalar, qaxramonlar, milliy ozodlik harakatlari, to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;
- Sho'ro hukumati va bolsheviklarning xalqimizga qilgan adolatsiz qatag'onlik siyosati, mulkiy va ma'naviy huquqlarini poymol etilgani haqidagi tasavvurga ega bo'lish;
- O'zbekistonning II jahon urushidagi ishtiroki xalqimizning front va mehnat sohasidagi jasorati haqidagi tushunchalariga ega bo'lish;
- Jahon va O'zbekiston tarixini yangi davri haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- Prezident asarlarini bilish, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yurita olish;
- O'zbekiston mustaqil, suveren, demokratik davlat sifatidagi tarixiy rivojlanish haqidagi ma'lumotga ega bo'lish;
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiy sharoitida rivojlanishning umumiy hususiyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;
- Milliy mustaqillik va uning dastlabki kunlari, mamlaktimiz bayrog'i, gerbi, madhiyasi, davlat ramzlari, Prezidenti, tashqi aloqalariga doir tushunchalariga ega bo'lish;
- Dunyo xalqlari oldida turgan jahonshumul muammolar, ularni bartarav etish vazifalari, O'zbekiston Respublikasining bu muammolarni hal etish yo'lidagi amalga oshirayotgan ishlari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- Xarita bilan ishlay olish, taixiy voqealar yuzasidan mustaqil mulohaza yurita olish, bayon qila olish, munozara va baxslarda faol ishtirok eta olish;
- Tarix ta'limi jarayonida egallagan bilimlarni erkin bayon eta olish, o'z sinfdoshlarini fikriga erkin munosabat bildirga olish;
- O'z maktabi, ko'chasi, tumani, qishlog'i, shahrining o'tmishi, buguni

to'g'risida ta'limotga ega bo'lishi"³³

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan „umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan umumiy o'rta ta'limdagi tarix ta'limi quyidagicha asoslangan:

- o'quvchilar ongiga insoniyat hayotining eng qadimgi davrlardan XX asr boshlariga qadar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi bilimlarni singdiradi;
- o'quvchilar tarixiy shakllantirish orqali tarixiy jarayonga yagona xodisa sifatida qarab (o'tmish-bugun-kelajak), ularda tarixiy bilimlar vositasida ijtimoiy yondashuv malakalarini hosil qilish;
- O'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- O'quvchilarga tarix o'z millati va o'zga millatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish qonuniyatlarini izchil o'rganish quroli ekanligini anglatishdandir"
- Mustaqillik bergan eng buyuk ne'matlardan biri O'zbekiston tarixini o'rganishda eng katta imkoniyatlar yaratilganligi bo'ldi. Ushbu fanning mazmuni yosh avlodni millatning dardiga darmon bo'ladigan, elim deb, yurtim deb yonib yashovchi, malakatimizning yuksak parvozig a zo'r qanot bo'luvchi komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida „umumiy o'rta ta'lim maktabida „O'zbekiston tarixi"ni o'qitish vazifalari quyidagilardan iborat qilib ko'rsatilgan:

³³ . Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dastur. Toshkent. „ Sharq" 1999 yil, 27-29-sahifalar.

- „ – tarix fani yuzasidan o'quvchilar bilimining davlat ta'lim standartlari darajasida bo'lishini ta'minlash;
- O'quvchilarning milliy ongi, siyosiy, nazariy, ilmiy dunyo qarashini shakllantirish; o'tmish va hozirgi zamondagi voqea-hodisalarga ilmiy holislik va tarixiy prinsplarga amal qilgan holda munosabat bildirishga qodir hamda umum insoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli barkamol insonni tarbiyalash;
- Yoshlarga xalqimizning madaniy-ma'naviy merosi, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlarni, ahloqiy fazilatlariga hurmat, otashin vatanparvarlik tuyg'usini, buyuk allomalarimizning jahon taraqqiyoti, sivilizatsiya qo'shgan xissasi bilan faxrlanish yuksaltirish, buyuk merosimizning munosib davomchilari hamda vorislarini tarbiyalash;
- O'quvchilarga O'zbekiston jahon hamjamiyatini ajralmas tarkibiy qismi ekanligini teran anglash va ularga millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish;
- O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'zining shaxsiy hissasini qo'shishga tayyor turuvchi iqtidorli yoshlarni tarbiyalash;
- O'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashini, tarixiy tafakkurini, bilim olishdagi faolligini, mulohaza yuritish ziyrakligini, o'z bilimni boyitishga bo'lgan ishtiyoq va talabchanlik rivojlantirish, bolalarga tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumiy lashtirish asosida mantiqiy xulosalar chiqarishda ko'maklashish;
- O'z haq huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-xodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda, shaxsiy fazilatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin fuqaro, ozod shaxsni shakllantirish”³⁴.

³⁴ . Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent. „Sharq”, 1999, 35-36-sahifalar.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida „Jahon tarixi“, „O'zbekiston tarixi“ kabi o'quv predmetlari bo'yicha mavzular, mavzularning mazmuni, mohiyati, o'quvchilar tomonidan egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar ko'rsatib berilgan;

Mustaqillik yillarda mazmun-mohiyati sobiq tuzum davridan tartiblardan mutlaqo yangilangan ta'limning yangi tizimi o'rta maxsus kasb hunar ta'lim bosqichi shakllandi. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“g qonunida belgilab qo'yilganidek o'rta maxsus ta'lim (akademik litsey) va kasb hunar ta'limi (kasb-hunar kolleji) umumiy o'rta ta'lim asosida faoliyat ko'rsatadigan uch yillik o'quv massasidir. Ushbu ta'lim muassasidir. Ushbu ta'lim bosqichida „Jahon tarixi“ fani o'quv dasturi akademik-litseylar va barcha yo'nalishlardagi kasb-hunar kollejlari uchun majburiy bo'lgan umumiy ta'lim dasturi sifatida etirof etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan „Jahon tarixi“ o'quv predmetining dasturiga O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi, „Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'limi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish choralari to'g'risida“gi 204-son va 2000-yil 16-oktyabrdagi „O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida“gi 400-sonli qarorlari asos qilib olingan. Yaratilgan o'quv dasturi „Jahon tarixi“ o'quv predmetining 1914-yildan hozirgi kunigacha bo'lgan davrini o'ziga qamrab olgan. Materiallar tarixiy voqea va hodisalarning tarixiy izchilligi tamoyili asosida umumiy o'rta ta'lim maktablardagi „Jahon tarixi“ o'quv predmetining davomi hisoblanadi. Har bir fan ta'lim maqsadida o'rganishni inobatga olgan holda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi, „Jahon tarixi“ fani yurtboshimiz ta'kidlaganidek: „Biz turli mamlakatlar iqtisodiyotining o'ziga xos taraqqiyotini katta diqqat – e'tibor bilan o'rganamiz, jahon amaliyati va jahon tafakkuri to'plagan eng yaxshi tajribalarni o'zimizda qo'llashni or bilamiz, aksincha bunday intilishni

har jihatdan rag'batlantiramiz"³⁵ deydi.

Yurtboshimiz ilgari surgan g'oyalar asosida „Jahon tarixi“ o'quv predmetini o'rta maxsus kasb hunar ta'limida o'qitishdan maqsad o'quv dasturida quyidagilar belgilangan:

- Insoniyatning 1914-yildan hozirgi kunigacha bosib o'tgan tarixiy yo'li, uning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy tajribasi haqida bilimlar asoslarini egallagan barkamol shaxsni tarbiyalashga hissa qo'shish.
- Horijiy mamlakatlar tarixi, iqtisodiy, ijtimoiy hayotini chuqur o'rganib solishtirish orqali mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini terangroq anglash va ilmiy, tarbiyaviy xulosalar chiqarish xamda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining shakllanishiga yordam berish;
- Turli mamlakatalar xalqlar tarixidan, jahon tafakkurida to'plagan tajribalardan xabardor bo'lgan, yuksak ma'rifatli, millatlararo muomala madaniyatiga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashga ko'maklashish;
- O'quvchilarning tarixiy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyatini anglab yetishga odatlantirish;
- O'zimiz va boshqa xalqlar qadriyatlariga insoniy munosabatda bo'lish ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.”
- O'rta maxsus kasb hunar ta'limida o'qitiladigan „Jahon tarixi“ yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, dunyo mamlakatlarining rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, O'zbekistonning bozor munosabatiga o'tish yo'liga tadbiq etishga boshqa xalqlar, millatlarni, ularning qadriyatlarini xurmat qilishga, xozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi insoniyat boshdan kechirayotgan xolatlarni tahlil qilish tushuna olish va xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Bu fan O'zbekiston tarixi fani bilan chanbarchas bog'langan bo'lib, o'quvchilar va talabalarning umumjahon bo'yicha bilimlarini egallashda katta ma'naviy asos bo'lib qoladi.

³⁵ Karimov I.A. Ushbu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. „Xalq so'zi“ 1994 yil 3 iyul soni.

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limida o'qitiladigan „Jahon tarixi” o'quv predmeti zimmasiga dasturda quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- Jahon tarixi fani insoniyat taraqqiyoti haqida to'la va batafsil tasavvur, bilim, hamda tushunchalar berishi lozim;
- Jahon tarixi fanini o'qitish jarayonida voqealarni ma'lum sinf va partiyalar manfaatlari nuqtai nazaridan emas, baki umuminsoniy manfaatlari tamoyillaridan kelib chiqqan xulosani ilmiy jihatdan yoritib berishi lozim;
- Jahon tarixi fanini o'qitishda uning davrlarini O'zbekiston tarixi davrlari bilan taqqoslagan holda bog'lab yoritish hamda jahon tarixida O'zbekistonning tutgan o'rnini aniq ifoda etishga hamda yoshlarni milliy istiqlol g'oyasini hamda mafkurasi ruhida tarbiyalashga erishmoq zarur;
- Tarixiy voqealarni bosqichma bosqich, ya'ni izchillikka rioya qilgan holda ochish, hususan, davr va zamon ruhini berish hamda O'zbekiston tarixining tutgan o'rnini aniq va ravshan ifoda etishga erishmoq kerak;
- Mustaqillikka qadar jahon tarixidagi voqea va hodisalarga faqat markscha-lelincha o'lchov asosida baho berishar edi. Endilikda esa umuminsoniy qadriyatlar va dunyo voqealari jarayonida haqiqat ko'zi bilan qarash asosida o'lchov va umumiy yo'nalish deb tushunish lozim. Marksizm-lelinizmga ham shu nuqtai nazaridan turib baho berish darkor;
- Jahon tarixi fanini insonparvarlashtirish masalasida jiddiy e'tibor berish, ya'ni tarix qarama-qarshi sinflar kurashidagina iborat deb insoniyatni ikkiga bo'lib, bir-biriga qarshi qo'ymasdan, ular umuminsoniy qadriyatlar asosida o'zaro totuvlikka, bir-biriga yordam berishga, tinch va osoyishta yashash taraqqiyotining garovi ekanligiga ishontirish zarur³⁶.

³⁶. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limning umum ta'lim fanlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. Toshkent „Sharq” 2001 yil 59-60 sahifalar.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi zimmasida ushbu ta'lim bosqichidan bilimlarni to'liq egallash, har tomonlama etuk komil insonlarni shakllantirishdek ulkan vazifa turibdi. Bu vazifani muvaffiqiyatli ado etishda O'zbekiston tarixini o'rni va ahamiyati kattadir. Zero, Prezident Islom Abdug'aniyevich ta'kidlaganidek: „Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirishimiz zarur”³⁷

Mustaqillik yillarda ta'limning barcha bosqichlarida o'qitilayotgan O'zbekiston tarixining asosiy maqsadi, xalqimiz, davlatimiz taraqqiyotidagi tarixiy voqea va xodisalar asosida saboq olish, yosh yigit qizlarimizda xalqimiz va vatanimiz taqdiriga daxldorlik fazilati hamda xissiyotlarini shakllantirishdan iboratdir.

O'rta maxsus kasb hunar ta'limida o'qitilayotgan O'zbekiston tarixining materiallari ikki boqichda: Birinchi bosqich O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida (1917-1991) 42 soat, ikkinchi bosqich vatanimiz tarixining milliy mustaqil taraqqiyot davri 38 soat o'qitish me'yoriy hujjatlar rejalashtirilgan.

Shunday qilib O'zbekistonda ta'limning barcha bosqichlarida o'qitilayotgan tarix fanining mazmuni huquqiy me'yoriy hujjatlarda ta'kidlaganidek, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish g'oyalari bilan sug'orilganligi xarakterlidir.

³⁷. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. „Adolatli jamiyat sari”. Toshkent „O'zbekiston” “1998 yil, 58 sahifa.

II BOB: SOVET HOKIMIYATINING DASTLABKI YILLARIDA O'LKADAGI IJTIMOIIY IQTISODIY VA SIYOSIY JARAYONLAR MAVZUSI BO'YICHA O'QUV MATERIALLAR TALQINI HAMDA O'QITILISH AHVOLI.

2.4 Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy ahvolning o'quv adabiyotlarda talqini.

Ma'lumki, sovet tarixshunosligida XX asrning boshlarida bolsheviklar tomonidan tashkil etilgan davlat to'ntarilishi, buyuk inqilob, Rossiya va uning chekka o'lkalaridagi xalqlarning hayotiga yangi davrning boshlanishi – sifatida noholis, noilmiy sohta yondashuv asosida taqin etilgan. Mustaqillik yillarida ko'p ming yillik tarixni, boy madaniy merosni o'rganishga katta ehtiyojni seza boshlagan xalqimiz bunday sohaga tarixiy talqin bilan sug'orilgan g'oyalar asosida qurollantirib bo'lmasligi ayon bo'lib qoldi. G'oyaviy jihatidan o'ta mafkuralashgan yondashuv jihatidan noholis, sohta tamoyillar asosida sobiq ittifodagi mavzuning materiallari butunalay qayta ko'rib, insonparvarlik va umumbashariy qadryatlar ruhi singdirilgan, yondashuv jahon talablaridan muvoffaqiyatli o'tgan: tarixiylik, ilmiylik, uzviylik, xolisonalik tamoyillari asosida mavzu materiallarini shakllantirishni davr taqazo qildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tarixni o'rganishga oid, g'oyalari, ko'rsatmalari asosida olimlar-mutaxasislarni say-harakatlari tufayli mavzu materiallarini o'zida yoritgan qator O'zbekiston tarixiga oid o'quv adabiyotlari nashr etildi³⁸. Mavzuga oid nashr etilgan O'zbekiston tarixi o'quv adabiyotlari tahlil

³⁸ O'zbekiston tarixi va madaniyati. Ma'ruzalar matni Sh.Karimov taxriri asosida. Toshkent. „O'qutuvchi: 1992-yil. R.Ya.Radjabova va boshqalar. O'zbekiston tarixi (1917-1992).Toshkent. „O'qutuvchi”1994. Q.Usmonov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi (1917-1992).Toshkent. “Sharq” 1994. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. “. O'zbekiston eng yangi tarixi” Toshkent. “Sharq” 2000. II-kitob; . Q.Usmonov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi (1917-1991).Toshkent. “Sharq” 2001. D.Alimova va boshqalar, O'zbekiston tarixi (1917-1991).Toshkent. “Sharq” 2001. R.Shamsutdinov va boshqalar, O'zbekiston tarixidan materiallar. III-kitob, Andijon 2004; R.Shamsutdinov va boshqalar, O'zbekiston tarixi (oliy o'quv yurtlari nomutaxasis talabalari uchun) T. Murtazoyeva taxriri ostida, Toshkent. “Sharq”2007.

qilinganida mavzular mazmunininig takomillashib borganiga guvoh bo'lamiz. Dotsent Sh.Karimov rahbarligida yaratilgan ma'ruza matnlarida³⁹ mavzuning mazmuni, mohiyati garchand o'quv qo'llanma mustaqillik yillarida nashr etilgan bo'lsada, sovet tarixshunosligidan andoza va yondashuvlardan xoli bo'la olmagan. P.Ravshanov va boshqalar tomonidan 1994-yil „O'qituvchi“ nashriyotida chop etilgan O'zbekiston tarixi (1917-1993-yillar) maktab o'quvchilariga mo'ljallangan darsligining 20-46 sahifalarida Oktyabr voqealari haqida bayon etiladi.

O'lkadagi hokimiyatning bolsheviklar qo'liga o'tishi haqida: “ Toshkentdagi ishchi soldat omma bilan general Korovichenno qo'shinlari o'rtasidagi qurolli to'qnashuv barcha siyosiy kuchlarning tutayotgan yo'lini ochib tashladi va o'lkaning ovro'palik aholisi ijtimoiy qatlamlari bilan guruxlarning ichida siyosiy chegaralanishni poyoniga etkazdi.”⁴⁰- deyiladi.

Ushbu darslikda Turkistonning iqtisodiy ahvoli haqida : Turkistonning iqtisodiy xo'jalik hayoti 1917-yilga kelib batamom tushkunlikka tushdi. Birinchi jahon urushi o'lkaning bu siz ham qoloq, metropoliya sanoatida xizmat qilishga mo'ljallangan iqtisodiyotiga aktta zarar etkazdi. Ekin ekiladigan maydonlar keskin kamayib ketti: 1917-yilda ular 1915-yildagi 3,5 mln detsina o'rniga 2,5 mln detsinadan sal ko'proqni tashkil etdi. Vayronagarchilik sanoatga ham ta'sir ko'rsatdi. Sanoatning yetakchisi bo'lgan paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarish hajmi 1917-yil 1915-yilga qaraganda ikki barobardan ko'ra ko'proq kamaydi”⁴¹.

O'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'quv adabiyotlaridagi talqini yurtboshimizning bir gurux tarixchi olimlar bilan uchrashuvida ilgari surgan g'oyalari „Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q“ asari nashrdan chiqishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Tarixchi olimlarga Prezidentimiz tomonidan tarixni

³⁹. O'zbekiston tarixi va madaniyati. Maruzalar matbi. Sh.Karimov tarixi asosida. Toshkent. „ O'qituvchi“ 1992 yil.

⁴⁰. R.E.Rajabova va boshqalar. O'zbekiston tarixi(1917-1993 yillar) Toshkent.„O'quvchi“ 1994 yil, 23-sahifa.

⁴¹ O'sha manba 38-sahifa.

o'rganish va talqin etishga oid metodologik xarakterdagi ko'rsatmalari asosida o'quv adabiyotlarni yangi avlodi shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-dekabr kuni uch kitobdan iborat "O'zbekistonning yangi tarixi"ni nashrga tayyorlash va nashr etish to'grisida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 2000-yil „Sharq“ nashriyotida O'zbekistonning yangi tarixi II kitobi "O'zbekistonning sovet mustamlakachilik davrida " nashr etildi. Ushbu manbada ta'kidlanishicha Rossiyadagi fevral davlat to'ntarilishidan so'ng o'lkada ham murakkab siyosiy vaziyat hakm surayotganligi aytiladi. „ Bu vaqtga kelib Turkistonda hokimiyatning sovetlar qo'liga o'tishi uchun obyektiv shart – sharoitlari ham; subyektiv shart-haroitlari ham yo'q edi. Bu erda amalda sanoat protiorati mavjud emasdi (uning umumiy miqdori o'lkada aholisining bir foizdan kamligi tashkil etardi). Hokimiyatning sovetlarga o'tishini yoqlab chiqqan siyosiy kuchlar (Toshkent shahrini hisobga olmagan holda) shakllanmagan, ommaning o'zi ham g'oyaviy jihatdan etilmagan edi. Hujjatlarning guvohlik berishicha, 1917-yilning kuziga kelib o'lkada shaharlari, viloyatlari va uezdlari aholisining hokimiyatni sovetlarga o'tishini talab qiluvchi aholi chiqishlari kuzatilmagan. Aksincha joylardan kelib turgan xabarlar va telegrammalar muvaqqat hukumatni qo'llab quvvatlab turish haqida gapirilar bolsheviklar va boshqa ekstremistalarning hokimiyatni sovetlarga berish haqidagi talablari fosh etilar, Mamlakat taqdirini hal etadigan Ta'sis majlisini chaqirish g'oyasi qo'llab quvatlanardi”⁴².

Petrogradda sodir bo'lgan davlat to'ntarilishi va muvaqqat hukumatning ag'darilib, sovetlarning II Butun Rossiya qurultoyida bolsheviklar yetakchisi Lelin boshchiligida Xalq Komissarligi kengashi saylanganligi haqidagi xabarlar o'lkadagi qurolli qo'zgolon amalga oshirishga turtki bo'lgan manbalarining guvohlik berishicha , 1917-yili 27-oktyabrdan 28-oktyabrga

⁴². O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. II kitob. Toshkent. 2000 yil 43-sahifa.

o'tar kechasi. Toshkent kengashining polk, rota va qo'mondonlik qo'mitalari ishtirokida bo'lib o'tgan qo'shma majlisida 28-oktyabr kuni ertalab qurolli qo'zg'olon boshlash haqida qaror qabul qilingan.

Albatta siyosiy voqealarning borishida mahalliy aholining munosabati muhim hisoblanadi. Sobiq tuzum tarixshunosligida go'yoki bu „inqilobni mahalliy kuchlar bilan yevropalik rus revolyutsionerlari amalga oshirgan“-deb talqin etilgan. Vaholanki : „Qurolli to'qnoshuvda mahalliy aholi amalda ishtirok etmadi, deyish mumkin. To'rt kechayu to'rt kunduz davom etgan qonli janglarda, haqiqatda, evropalik qurollangan ishchilardan iborat bir necha ming kishi ishtirok etdi. Ular orasida Toshkent xarbiy bilim yurtining o'quvchilari, askar va zobitlar ishtirok etdi. Shaharning tub yerli aholisi (asosan o'zbeklar) esa asos e'tibori bilan betaraf pozitsiyasida turdi. Shahar ko'chalari va maktablarida avj olib ketgan shavqatsiz janglab qo'zg'olon ko'targanlar g'alabasi bilan tugadi“⁴³ deyiladi. Shunday qilib ushbu adabiyatda „ inqilob“ to'g'risida noholis tarixiy talqinga ilmiy asoslangan quyidagicha xulosa beriladi: „/// Toshkent bosheviklari va so'l eserlari shaharda bo'lib o'tgan qurolli qo'zg'olon kunlarida begunoh halok bo'lganlar qoni evaziga hokimiyat tepasiga keldi“⁴⁴.

Tarix fanlari doktori, professor D.Alimova va boshqa jamoa a'zolari ishtirokida tayyorlangan O'zbekiston tarixi (1917 -1991 yillar) maktab o'quvchilari uchun darslik 2000-yil , Sharq” nashriyotida chop etilgan. Mazkur darslikda sovet hokimiyatining o'lkada o'rnatilishi va dastlabki yillarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga keng to'xtalib o'tiladi. Darslikda davlat to'ntarilishi amalga oshirilishdagi tarixiy shart – sharoitlar manbalar asosida taxlil qilinadi. O'quvchilarda Turkistonda hokimiyatning qo'lga kiritilishi bolsheviklarning o'lkada yuritgan siyosati mohiyati ochib berilgan. Darslikda 1917-yilning kuzida Turkiston va uning markazi bo'lgan Toshkent

⁴³. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. II kitob. Toshkent. 2000 yil 44-sahifa.

⁴⁴. O'sha manba. 45-sahifa.

shahrida murakkab ijtimoiy- siyosiy vaziyat vujudga kelganligi, bolsheviklarning hukumatni ag'darishga da'vat qilganliklari aytiladi. Mahalliy aholi bunday siyosiy o'yinlardan chetda bo'lganligi, bolsheviklar esa zo'r berib hokimyatni egallashga intilganligi bayon etiladi. Darslikda , 1917-yil 28-oktyabrda Toshkentning yangi shahar qismida qurolli to'qnashuvlar avj oldi. Qo'zg'olonchilar (muvaqqat hukumati harbiy qo'mondoni) qismlaridan ustun keldi. Noyabrda Toshkent harbiy qal'asi taslim etildi, shu kuni qurolli qo'zg'olon g'alaba qozondi, deb e'lon qilindi.

1917-yil 15-noyabrda ish boshlagan O'lka ishchi soldat va dehqon Deputatlari Sovetining III qurulyoti tortishuvlar oqibatida hukumat Turkiston Xalq Komissarlari Sovetini tuzdi va unga 8 o'rin so'l eserlar, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Evropaliklardan iborat hukumat tuzildi Turkiston XKS raisi lavozimini kasbi chizmachi bo'lgan Bolshevik F.Kolesov egalladi, harbiy komissar qilib izlovchi Terfilov, boshqa komissarlik lavozimlariga o'rtamiyona yurist va shunga o'xshaganlar tayinlandilar. Hukumat a'zolari qatoriga tub aholi vakillaridan kiritilmadi. Bu tasodifiy hol emas edi⁴⁵ – deyiladi. O'lkadagi siyosiy vaziyat haqidagi manbalar tahlil qilinganda, bolsheviklar tashabbusi bilan tuzilgan hukumat o'lkadagi qurolli kuchlar tayangan holda chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qilinishini ko'rish mumkin. Turkiston bolsheviklari ham, Rossiya markazidagi bo'lgani singari inqilobiy aqidalarga, eng avvalo, sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Inqilobiy kuchning asosiy tayanchi proteriorat va kambag'al dehqonlar qaralib, qolgan aholi qatlamlari reaksionarlari, eksplutatorlari deb qaraldi „, ajnabiylar hukumati o'lkadagi harbiy qismlari qurollangan ishchi gvardiyaga tayanib ish ko'rdi. Bu hokimiyat faoliyati faqat zo'rlikka, buzg'unchilikka, qon to'kishga qaratildi, ong saviyasi past, ko'pincha jinoiy unsurlar bilan soldatlar, gvardiyachilar,

⁴⁵. Alimova.D va boshqalar. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar) Toshkent. „Sharq“ 2001 yil, 26-sahifa.

yerli aholi, ayniqsa dehqonlarni shavqatsizlik bilan talay boshladilar”⁴⁶ Darslikdagi materiallar o’quvchilarning yosh hususiyati va tarixga oid yaratilganligi bilan xarakterlidir. Shuning uchun darslik bayonidagi mavzuga oid materiallar o’quvchini o’ziga torta olgan. Voqea va hodisalar tarixiylik va haqqoniylik tamoyillariga aoslanib yaratilgan.

O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risidagi” qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida mamlakatimiz ta’lim tizimida o’rta mahsus kasb-hunar ta’limi mazmuni butunly yangilandi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini zamon talabi darajasidagi o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash dolzarb masalaga aylandi. Professorlar: Qamariddin Usmonov va Mahmudjon Sodiqovlar 2006-yil “sharq” nashriyotida o’rta mahsus kasb-hunar kollejlari o’quvchilariga mo’ljallangan “O’zbekiston tarixi” (1917-1991) darsligini nashr ettirishdi. Ushbu darslikda o’tgan asrning dastlabki yillaridagi Turkistonda sodir bo’lgan suronli tarixiy jarayonlar yoritilgan. Petrogradda hokimiyatning egallagan bol’sheviklar, jumladan Turkistonda ham sovet tuzumini qaror topishiga uringani darslikda ta’kidlanadi. “Ular nihoyatda yashirin niqoblangan dasturiy hujjatlarni, o’z go’yaviy ta’sirini ishga solib, qisqa muddatlarda joylarda hokimiyatni qo’lga kiritishga kirishdilar. Bu maqsadga erishishda kerak bo’lsa, har qanday zo’rlik, kuch ishlatishdan ham qaytmadilar. Bu ayniqsa Turkiston o’lkasi misolida yorqin namoyon bo’ldi”⁴⁷. Hokimiyatni egallagan bol’sheviklar o’lkada o’ziga xos ijtimoiy-siyosiy sohada siyosat yuritdilar. Hokimiyatning shakllanishi uning tarkibiga mahalliy aholi vakillarining kiritilmasligi ham bol’sheviklar yurita boshlagan siyosat mazmun mohiyatiga ko’ra chorizm mustamlakachilik siyosatining mantiqiy davomi ekanligini ko’rsatadi. “Aholini ma’naviy-ruxiy kamsitish, diniy e’tiqodini, islomiy qadriyatlarini tahqirlash, muqaddas

⁴⁶. Alimova.D va boshqalar. O’zbekiston tarixi (1917-1991 yillar) Toshkent. „Sharq“ 2001 yil, 76-sahifa.

⁴⁷. Q.Usminov M.Sodiqov “O’zbekiston tarixi” (1917-1991yy) Toshkent “sharq” nashriyoti 2006-yil, 17-sahifa.

qadamjolarini haqoratlash, diniy kitoblarni gulhanda yondirish-bular sovet tuzumi zo'rovlari uchun o'sha kezlarda odatiy tus bo'lib qolgan edi.

Aniq rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatini o'rnatish gohida Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming, Bozorqo'rg'onda va qo'qonqishloq atroflarida 4,5 mingdan ziyod begunoh kishilar qirg'in qilingan. Bunday qirg'inlik Turkistonning boshqa shahar va qishloqlarida ham sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida sodir etildi”⁴⁸

Mavzuga oid adabiyotlar haqida fikr yuritilganda mavzuning mazmuni va mukammal yoritilgan qo'llanmalardan biri professor, Rustam Shamsutdinov va Shodi Karimovlar tomonidan Andijon shahrida 2004-yil nashr etilgan “O'zbekiston tarixidan materiallar(uchinchi kitob)” e'tiborga loyiqdir. Kitobda sovet mustamlakachiligining o'rnatilishi va unga qarshi o'lkamiz xalqlarining milliy ozodlik kurashlari, O'zbekistonning sovet rejimi sharoitidagi ahvoli, xalqning tortgan azob-uqubatlari, ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, sho'rolar istibdodining kuchayishi va unga qarshi milliy uyg'onish va uning bosqichlari, istiqlol uchun kurash keng ko'lamda, xilma-xil hujjatli manbalar asosida aks ettirilgan. “Pedrograddagi hokimiyatning davlat to'ntarishi tufayli bolshveklar qo'liga o'tganligi haqidagi xabar Turkistonga kelishi bilan ishchi va askar deputatlari Toshkent sho'rosining ijroiya qo'mitasi faollari Kushka va Jizzaxdagi xar bir qismlarga murojaat qilib hokimiyatni qo'lga olishda ulardan yordam so'radi. “Pedrograddagi oktyabr harbiy to'ntarishini Turkistonda bol'sheviklardan boshqa barcha siyosiy kuchlar qoraladilar va unga qarshi chiqdilar, oktyabr to'ntarishi allanechuk tasodif, noxush xodisa, jamiyat va vatan oldidagi jinoiy voqea sifatida hatto uzoq Turkistondagi rus ro'znomalarida ham o'z aksini topdi”⁴⁹ deyiladi o'quv materiallarida. Demak bunday davlat to'ntarishi o'sha

⁴⁸. Osha manba 18-sahifa.

⁴⁹. Rustam Shamsutdinov Shodi Karimov “O'zbekistin tarixidan materiallar(3-kitob)” Andijon. 2004, 49-sahifa.

davrdagi bol'sheviklardan tashqari barcha siyosiy kuchlar tomonidan yomon kutib olinganini ko'rsatadi. 1917-yil 12-noyabr kuni bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi musulmonlarining uchinchi qurultoyida hokimiyat masalasi muhokama qilindi. Ushbu masala bo'yicha qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Hokimiyatning mahalliy aholi manfaati uchun deyarlik zid bo'lgan begona va o'tkinchi, demokratik qoidalar talabiga javob bermaydi va mahalliy aholiga xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash asosida to'g'ri hayot qurishga kafolat bermaydi"⁵⁰.

Mustaqillik yillarida nashr etilgan mavzuga oid o'quv adabiyotlarida Rossiyadagi davlat to'ntarishlaridan so'ng o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol chuqur va holisona tahlil qilinishi bilan birgalikda, bol'sheviklarning hokimiyatni qo'lga kiritgandan keyingi yillaridagi siyosati mazmuni ham yoritib berilgan. Olimlar mutaxassislar o'lkada faoliyat ko'rsatgan ziyolilar, jadidlar, siyosiy partiyalar va oqimlar faoliyatlari haqida ishonchli manbalar va materiallar asosida mavzu mohiyatini yoritishga harakat qilganlar. Ayniqsa Turkiston xalq komissariatining tuzilishi va unga mahalliy xalq vakillarining munosabatini, "Turkiston muxtoriyati"ning tashkil topishi, muxtoriyatga sovet hukumati va mahalliy aholining munosabatlari yaxshi yoritib berilgan. Bol'sheviklarning mahalliy aholi, ularning qadriyatlari, mentalititiga munosabatlari ishonchli manbalar bilan yoritilganligi bilan harkterlidir. O'rta mahsus kasb-hunar ta'limi tizimida tahsil olayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga xos qilib yaratilganligi o'quv adabiyotlari ahamiyatini yanada oshirgan.

⁵⁰. A'zamxo'jayev Saidakbar. "Turkiston muxtoriyati" Toshkent "sharq" 1996-yil, 26-sahifa.

2.5. Ta'lim jarayonida mavzu materiallarini o'qitishda qo'llanilayotgan texnologiyalar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarda interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib ta'limni samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lim sohasida bugungi kunda keng qo'llanilayotgan texnologiyalar talablar, o'quvchilar tomonidan mavzular bo'yicha materiallarni mustaqil o'rganib topish, tahlil qilish, hatto xulosalar chiqarishga ham o'rgatmoqda. Ta'lim samaradorligini oshirishga hizmat qiluvchi muoammolarni o'rganayotgan ayrim mutahassislarning fikricha: pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalri, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnik vositadir. Ammo bu masala bilan amaliyotda shug'ullanayotgan ayrim mutaxassislar:--"pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi-o'qituvchi yoki talaba(yoki o'quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq" O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llanilayotgan xar bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) o'rtasida xamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yokio'quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib tahmin etib, o'zlari xulosa qilaolsalar, o'zlariga, guruxga, gurux esa ularga baxo beraolsalar, o'qituvchi esa bunday faoliyatlari uchun imkoniyat, sharoit yarataolsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi—bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, talaba (yokio'quvchi) ehtiyojidan kelib chiqqan xolda bir maqsadga

yo'naltirilgan oldindan puxta loyixalashtirilgan kafolatlangan natija berishga qatilgan pedagogik jarayondir⁵¹.

Bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyot ko'rsatayotgan pedagoglar talabalar (yoki o'quvchilar)ga samarali ta'lim berishda quydagi texnologiyalardan: "Tanishuv", "Tushunchalar tahlili", "Zinama-zina", "Charhpalak", "Bumerang", "3x4", "Rezyume", "Muammo", "Labrint", "Blits so'rov", "FSMU", "Skarabey", "Elpg'ich", "Muloqat", "Bahslashuv", "KBI(kuzatish, baxslashish, ishontirish)", "Yozma baxs(debat)", "Munosabat", "Tashviqot", "Ajil(amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar)", "Ssenariy", "IMAK(ishontirish maktabi)", "SAN(samarali, ahloqiy, nazokatli)", "Konsensus va konfrensiya(kelishuv va ziddiyat)", foydalanishmoqda.

Tadqiqot ishimizning bayonida ta'limda qo'llanilayotgan ayrim texnologiyaning maqsadi, tarifi, qo'llanilishi masalalariga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

"Charhpalak", texnologiyasida talaba (yoki o'quvchi)larni o'tilgan mavzularni yodga olishga mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan talaba (yoki o'quvchi)larning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan. Maqsadi esa-o'quvchilarning mantiqiy fikrlari, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon etaolish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikrlariga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakmasini tanlab olishga o'rgatadi. Qo'llanilishi esa: O'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallangandan so'ng o'tilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan.

⁵¹. Ishmuhamedov P va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent "Istedod" 2008-yil, 16-sahifa.

Mashg'ulot jarayonida ushbu texnologiyani qo'llashda: karta, kontur karta tarqatma materiallardan foydalanish mumkin.

“**Bumerang**” texnologiyasi: bunda o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash o'rgangan materiallarni yodda saqlab qolish, so'zlab berish fikrini erkin bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baxolay olishga qaratilgan. Maqsadi esa- o'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va gurux xolatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganini nazorat qiladi va baholaydi. O'quv jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonidan o'z (ballari)ni egallashga imkoniyat yaratadi. Ushbu texnologiya amaliy mashg'ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg'lotlari hamda axborot-munazara shaklidagi darslarda, yakka tartibda, kichik gurux yoki jamoa shaklida foydalanish mumkin.

“**3x4**” ” texnologiyasida o'quvchilarning bir muammoli yakka holda fikrlab hal etish, echimni topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosiga qo'yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha xosil qilishga shuningdek, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan avval yakka xolda, so'ngra ularni kichik guruxlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi. Ushbu **texnologiyaning maqsadi:** o'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha xosil qilishga, jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga, qo'yilgan muammoni echishga va mavzuga umumiy tushuncha berishga o'tilgan mavzulardan egellangan bilimlarni qo'llay olishga o'rgatishdan iboratdir. Mashg'ulotlarda ayniqsa tarix fanidan seminar rayonida A-3, A-4 farmatlardagi qog'oz varaqlarni (gurux soniga), flamaster, rangli qalamlardan foydalanish mumkin.

Ta'lim tizimida keng foydalanilayotgan texnologiyalardan yana biri- **“Rezyume”** texnologiyasidir. Bu texnologiya ko'p tarmoqli va murakkab masalalarni o'rganishda qo'llaniladi. Mazkur texnologiyada yana bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan: ijobiy tomonlari, afzallik va kamchilliklari, foyda va zararlari belgilanadi. **Tehnologiyaning maqsadi:** o'quvchilarni erkin firlash, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining echimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga shuningdek, berilgan muammoni echishda, mavzuga oid o'tgan mavzu materiallarini, mavzu bayonida qo'llashdan iboratdir. Ushbu texnologiyani ma'ruza, seminar laboratoriya mashgu'lotlari jarayonida qo'llash mumkin. Ushbu texnologiyadan foydalanishda A-3 format qog'ozlar, tayyorlangan tarqatma materiallar, flamaster, rangli qalamlar vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

“Muammo” texnologiyasida o'quv predmetining kelin chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echilishini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarini shakllantirish, muammoni echishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni echishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni echishdagi hatti harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu texnologiyani qo'llashda o'quvchilar guruxga ajratilib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartibi o'quvchilarga tushuntiriladi va mashg'ulot bosqichli bo'lib, har bir bosqich o'quvchilardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilinishi, mashg'ulot davomida ular yakka, gurux va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o'quvchilarni topshiriqlarni bajarish uchun psixologik jixatdan tayyor bo'lishga yordam beradi va boshqarishga

ishtiyoq va qiziqishini oshiradi. Bugungi kunda tiklanayotgan haqiqiy tariximiz-bilan xalqimizni qurollantirish dolzarb masalaga aylangan bir paytda, ta'limni samarali texnologiyalar orqali amalga oshirish muxim ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yil 17-yanvar Vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: "Bizning vazifamiz, kerak bo'lsa, oliy burchimiz-farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan uyg'un rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egallagan, vatanimiz va xalqimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol insonlar bo'lib voyaga etishishi uchun qo'limizdan kelgan barcha-barcha ishlarni amalga oshirishdan iboratdir"⁵² deb ta'kidladi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining Tarix fakulteti IV kurs talabasi sifatida "tarix" yo'nalishi ixtisosligi bo'yicha o'quv rejasining 7-semestirida o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi bosqichida pedagogik amaliyotda bo'ldim. Pedagogik amaliyot jarayonida o'rta mahsus kasb-hunar ta'limidagi tarixchi o'qituvchilarning ushbu mavzu materiallari bo'yicha o'quvchilarga ta'lim berish va qo'llanayotgan ta'lim texnologiyalari bilan tanishdim. Davlat ta'lim standartlari asosida tasdiqlangan o'quv rejasida "Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar" masalasiga bir necha mavzu ajratilgan.

Olmazor tibbiyot kolleji o'qituvchisi R.F.Namozovning "Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, ijtimoiy-siyosiy ahvol. Turkiston muxtoriyati"-mavzusida dars ishlanmalarini kuzatdim. Materiallar ilova qilinmoqda **(ilova 1)**.

⁵². Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2014-yil, 18-yanvar soni.

Ma'ruza mashg'ulotida 30 ta o'quvchi ishtirok etdi. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotining maqsadini tushuntirgach ushbu maqsadni amalga oshirish uchun mashg'ulot jarayonida xal etadigan vazifalarni (reja) o'quvchilarga tanishtirdi. Ta'lim berishda: ma'ruza, BBB, FSMU, tushunchalar tahlili kabi texnologiyalardan foydalanildi. Mashg'ulot jarayonida jamoaviy va kichik guruxlar bilan ishlab, o'quv qo'llanma, vatman, skoch va adabiyotlardan vosita sifatida foydalanildi. Ma'ruza jarayonida mavzu materiallarini savol-javob asosida o'tgan mavzu materiallari va hozirgi davr bilan o'rinli bog'landi.

Mashg'ulotdagi tashkiliy va ta'limiy masalalarda vaqt taqsimotiga amal qilishga harakat qilindi. Vaqti-vaqti bilan o'quvchilarni faollashtirishga harakat qildi. Ma'ruza rejasidagi barcha masalalarning mazmunini yoritishga intildi. Mashg'ulot yakunida mavzu materiallari bo'yicha xulosa qilindi. Mashg'ulotni o'tkazishdan o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan vazifani bajardi. Agar o'qituvchi ma'ruza jarayonida ta'lim berish vositalaridan foydalanishidagi uzilishlar bo'lmaganida, o'quvchilar bilan muloqot yanada ko'proq bo'lganida, qo'llanilgan texnologiyalar yanada ishonchli bo'lganida, ta'limning tarbiyaviy tomoniga ko'proq e'tibor bo'lganida ma'ruza mashg'uloti yanada samaraliroq bo'lar edi.

Sergeli turizm kolleji o'qituvchisi E.M.Jo'rayevning "Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, ijtimoiy-siyosiy ahvol" mavzusidagi o'tkazgan ma'ruza mashg'ulotida 30 ta o'quvchidan 29 tasi ishtirok etdi. O'qituvchi ushbu mavzu materiallari bo'yicha ta'lim berishda o'lkadagi sovet hokimiyatining o'rnatilishi va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida ta'lim berishni maqsad qilib qo'yganligini bayon etdi. **(ilova 2)**

Mashg'ulotning ta'lim soxasidagi vazifalari: Oktyabr qurolli to'ntarishning Turkiston xalqlari hayotiga ta'siri, Turkistonda hokimiyatni bol'sheviklar zo'ravonlik bilan tortib olinishi, "Turkiston muxtoriyati"ning tashkil topishi shart sharoitlari va muxtoriyatning taqdirini, ushbu davrga oid

Turkistondagi tarixiy voqea va xodisalarni jahon tarixi bilan uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarga etkazib berishdan iboratdir. O'qituvchi ta'lim berishda an'anaviy ma'ruza bayoni, BBB, FSMU, tushunchalar tahlili, savol-javob texnologiyalaridan foydalanishga harakat qildi. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi jamoaviy va kichik guruxlarga bo'lib guruxni ishlatish kabi ta'lim berish shakllarini qo'llashga intildi. Mashg'ulot jarayonida o'quv qo'llanmasi, proektor, O'zbekistonning siyosiy kartasi, market, vatman, skotch, mavzuga oid xujjatlardan vosita sifatida o'qituvchi foydalanildi. Mashg'ulotda mavzu materiallarini to'liq etkazib berish uchun muvaffaqiyatli reja tuza olgan. Rejalashtirilgan masalalar tarixiy voqea va xodisalarning xronologik izchillik asosida bayon etildi. Ma'ruza jarayonida o'quvchilarni muloqotga chaqirishga harakat qilindi. Ma'ruza so'ngida o'quvchilardan tushgan 3 ta savolga asosli va to'g'ri javob berildi. Mavzu materiallari bo'yicha muvaffaqiyatli yakun yasaldi. O'z vazifasi va uni bajarish bo'yicha tushunchalar berildi.

Menimcha, mashg'ulot jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlay olganda, tashkil etilgan vositalarning barchasidan unumli foydalanilganida, mavzu materiallari bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan ijtimoiy- siyosiy jarayonlar bilan ko'proq bog'laganda, mavzuning tarbiyaviy tomoniga ko'proq urg'u berilganda, mashg'ulotning ahamiyati yanada yuqori bo'lur edi. Biroq bu muloxazalar o'tkazilgan ma'ruza mashg'ulotning ahamiyatini yo'qota olmaydi. Ma'ruza mashg'uloti o'rta mahsus kasb hunar ta'limida qo'yilgan talablarga javob bera oladigan darajada tashkil etildi. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotini o'tkazishdagi maqsadiga erishdi.

Toshkent shahar chilonzor tibbiyot kolleji o'qituvchisi D.J.Alievning "Turkiston sovet hokimiyatining dastlabki yillarida " mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda ishtirok etdim. Mashg'ulot jarayoni bo'yicha materiallar ilova qilinmoqda.**(ilova 3).**

Mashg'ulot jarayonida mavzuning texnologik kartasida ko'rsatilgan texnologiyalardan unumli foydalanishga harakat qilindi. Auditoriya

o'quvchilarni faollashtirish uchun muvofiq bo'ldi. Ma'ruza rejasidagi barcha masalalarni yoritishga erishildi. O'quvchilardan tushgan ikkita savolga to'g'ri va asosiy javob berildi. Uy vazivasi tushuntirib berildi. Mavzu materiallari bo'yicha xulosa qilindi. Agar mashg'ulot jarayonida mavzuga oid vositalardan ko'proq foydalanilganda, mavzuning tarbiyaviy mohiyatiga ko'proq e'tibor berilganda o'tkazilgan ma'ruza mashg'ulotining qimmatini yanada oshgan bo'lardi. Ushbu mulohazalarga qaramasdan ma'ruza mashg'uloti o'rta mahsus kasb hunar ta'limining talablari asosida to'g'ri tashkil etildi.

Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi, to'qimachilik va engil sanoat kolleji o'qituvchisi N.E.Sultonovanning I bosqich o'quvchilari bilan "Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Turkistondagi 1917-yilgi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar" mavzularidagi 2 soat ma'ruza mashg'ulotida ishtirok etib, dars mashg'ulotini kuzatdim. . Mashg'ulot jarayoni bo'yicha materiallar ilova qilinmoqda.**(ilova 4).**

Ma'ruza mashg'uloti jarayonida o'qituvchi mavzu materiallarini rejalashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanilgan holda qiziqarli qilib olib borishga harakat qildi. O'quvchilar bilan savol-javob qilgan holda mashg'ulot olib borishga intildi. Mashg'ulotlarni kuzatish jarayonida shunday xulosaga keldimki, o'qituvchi ma'ruza mashg'ulotini o'tish bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi. Agar mashg'ulot jarayonida proektordan unumli foydalanilganda, mavzuga oid muammolarni ekranda ko'rsatib sharxlaganda ma'ruza mashg'ulotining mazmuni yanada boyigan bo'lar edi.

Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi G.Sa'dullaevaning "Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati," "Turkistonda sovetlar boshqaruvining mustahkamlanishi. TASSRning tashkil topishi" mavzularidagi ma'ruza mashg'ulotlarida qatnashdim va mashg'ulot jarayonini tahlil qildim. Materiallar ilova qilinmoqda. **(ilova 5).**

O'qituvchi har ikkala mavzu materiallarini puxta egallagan. Mavzu

materiallarini bayon etishda ta'lim texnologiyalaridan o'rinli foydalana oldi. Mavzu materiallarini bilan o'quvchilarni qiziqтира oldi. O'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi faoliyati asosli va xolisona baholandi. Mavzulr xulosasi o'rinli va asosli, tushunarli qilib uy vazifalari berildi. Agar mavzular bayoni hozirgi davr bilan bog'langanda, guruh, guruhchalarga bo'lindi ammo ularning faoliyati imkoniyatlaridan to'liq foydalanilganda ma'ruza yanada samarali bo'lur edi.

Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi-magistr A.Namozovning "Turkistonda sovetlar boshqaruv tizimining mustahkamlanishi" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotida ishtirok etib, mashg'ulot jarayonini tahlil qildim. Materiallar ilova qilinmoqda. **(ilova 6).**

Ushbu ma'ruza mashg'uloti bu ma'ruzagacha ishtirok etgan mashg'ulotlardan faq qilgan xolda, menga yaxshi taassurot qoldirdi. Chunki sinf o'uvchilari juda faol, o'qituvchi mavzu materiallari bayoni bo'yicha rejalashtirilgan texnologiyalardan mohirona foydalanildi. O'quvchilar faoliyatidan ijobiy foydalanildi. Muallif mashg'ulot jarayonini muvaffaqiyatli o'tkazib o'z maqsadiga to'liq erishdi. Mavzu bo'yicha asosli xulosalar chiqarib, muvaffaqiyatli va o'quvchilarga tushunarli qilib uy vazifasi berildi.

Shunday qilib mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ta'limning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim texnologiyalaridan foydalanish joriy etildi. O'rganilgan o'rta mahsus kasb hunar ta'limida o'qituvchilarning mavzu materiallarini o'qitishda qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalari mavzu materiallarini samarali o'zlashtirishga xizmat qilmoqda.

2.6 Mavzu bo'yicha samarali ta'lim berishga oid

ta'lim texnologiyalari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim soxasidagi isloxlarning natijasini samarali bo'lishi ko'p jixatdan ta'lim jarayonidagi qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar bilan bog'liqdir. Mustaqillik yillarida Respublikamiz tarixchi- olimlari say' harakati tufayli "Sovet xokimiyatining dastlabki yillaridagi O'lkaning ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy axvoli" mavzusi O'zbekiston tarixi darslarida to'liq va xaqqoniy talqin asosida yoritildi. Mavzuga oid ko'pgina manbalar va materiallar nashr etildi. Bir so'z bilan aytganda mavzu materiallarini o'qitishda ta'lim ishtirokchilari uchun ulkan baza shakllantirildi. Endigi asosiy vazifa yurtboshimizning Oliy Majlis IX sessiyasiga ta'kidlaganlaridek "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'licha Mustaqil fikirlash xam katta boylikdir."⁵³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-may kuni e'lon qilingan: malakali pedagogik kadrlar tayyorlash xamda o'rta maxsus, kasb xunar ta'limi muassasalarini shunday kadr bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishni yanada oshirish yo'llarini asoslab berdi. Mazkur qarorda ko'rsatilishiga O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim markazi zudlik bilan ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni, xamkorlikda o'qitish, shuningdek, "amaliy yo'llar, interfaol ta'lim uslublari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish lozimligi ko'rsatilgan. Mavzu bo'yicha ta'lim texnologiyalarini shakllantirish va tarixiy bosqichlariga oid materiallarini o'rganish va tadqiq qilish ushbu jarayonni 3 ta tarixiy bosqichda sodir bo'lganligini ko'rsatadi".

⁵³. Karimov.I.A Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997-yil, 9-sahifa.

Birinchi bosqichda o'qitish jarayonini faqat o'qituvchi olib borganiga guvoh bo'lamiz. O'quv predmeti materiallari faqat o'qituvchi orqali o'quvchilarga berilgan.

Ikkinchi bosqichga esa darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etila boshlangan.

Uchinchi bosqichga esa ta'lim mazmuni, o'qitish usullari mazmun jixatdan boyib borganiga guvoh bo'lamiz. o'qituvchi va o'quvchi uchun texnik vositalar, o'rgatuvchi mashinalar ham qo'shildi, dasturlangan ta'lim tushunchasi payda bo'ldi. Ta'lim samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi yangi yondoshuvlar kirib kela boshladi.

Olimlar mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, ta'limga texnologik yondoshuv XX asrning 30-yillarida paydo bo'la boshlagan. Bu davrda "Pedagogik texnika" tushunchasi maxsus adabiyotlarda ko'rinib keldi va o'quv mashg'ulotlarini aniq hamda samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida o'tgan asrning 40-50 yillar boshlarida o'quv jarayoni o'qitishning texnik vositalarini joriy davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi metodik texnologiyalarga tenglashtirildi.

50-60 yillarda jahon pedagogikasida o'quv jarayonini o'ziga xos "Texnologik" usulda tashkil etish harakati vujudga keldi. 60-70 yillarda esa, o'qitish metodlarining o'ta turli tumanligidan ulardan samarali foydalanishda qiyinchiliklar paydo bo'la boshladi va bu metodlar uchun umumiy bo'lgan ilmiy asos yaratish zaruriyati vujudga keldi. Natijada pedagogik metodlar texnologiyasi, o'qitish texnologiyasining nazariy asoslari vujudga kela boshladi.⁵⁴

Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini yaratish tarixini mutaxassislar shartli ravishda 4 bosqichga ajratadilar.

⁵⁴ . Madumarov T. Kamoliddinov I. Innovatsion pedagogic texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash. Toshkent. "Talqin" 2012-yil, 67-sahifa.

I bosqich: XX asrning 30 yillari amaliyotda “Pedagogik texnologiya” tushunchasining paydo bo’lishi;

II bosqich: XX asrning 40-60 yillari o’qitishning texnik vositalari paydo bo’lishi, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish;

III bosqich: XX asrning 70-80 yillari o’qitish texnologiyalari yangi avlodning yaratilishi; texnologiyaning ilmiy asoslarining vujudga kelishi.

IV bosqich: XX asrning 90 yillari XXI asr boshlari pedagogik texnologiyalarni qaroriy va amaliy jixatdan tizimli tadqiqot qilish, nazariy va amaliy asoslarining yaratilishi, ilmiy maktablarning shakllanishi.⁵⁵

Mamalakatimizda pedagogik texnologiyalarning nazariy, amaliy asoslarini, ularning mukammalligini o’rganish va o’quv-tarbiyaviy jarayoniga tadbiq etish jarayoniga katta e’tibor berilmoqda.

Mutaxassislar tayyorlovchi barcha o’quv yurtlarida pedagogik texnologiyalar fan sifatida o’qitilmoqda. O’tgan asrning oxirlarida Oliy va O’rta maxsus kasb hunar ta’lim vazirligi tassarufida “Oliy va o’rta maxsus maktab muammolari institutida “Pedagogik texnologiya va ta’lim sifatli bo’lishi tashkil etildi. Xozirgi kunda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi “Innavatsion texnologiyalar markazi faoliyat ko’rsatmoqda”.

Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini yaratish bo’yicha bir qator Respublikamiz olimlari samarali ilmiy faoliyat olib bormoqdalar. Jumladan, R.X.Jo’raev, U.N.Nishonaliev, N.S.Saidaxmedov, J.G.Yo’ldoshev, B.L.Farberman, N.N.Azizxo’jaeva, K.Ishmatov, A.A.Abduqodirov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarini alohida ta’kidlash mumkin. Pedagogik texnologiyalar masalalariga oid ko’pincha olimlar mutaxassislarning ishlari nashr etildi.⁵⁶

⁵⁵ . . Madumarov T. Kamoliddinov I. Innavatsion pedagogic texnologiya asoslari va uni ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llash. Toshkent. “Talqin” 2012-yil, 68-sahifa.

⁵⁶ B.L.Farberman. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2000-yil;
N.S.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2003-yil;
N.N.Azizxo’jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat . Toshkent. 2006-yil

Bugungi kunda o'qitishning texnologiyalashtirishi jarayon quyidagi tarkibni o'z ichiga oladi:

- o'quv maqsadlarini loyixalash;
- o'quv maqsadlarini aniqlashtirish;
- o'quv maqsadlari qatori (taksonogiyasi)ni tuzish;
- o'quv maqsadlarini topshiriqlarga aylantirish;
- maqsadlarga erishish yo'llarini qo'llash;
- erishilgan maqsadlarni tuzatish ishlari;
- natijani baxolash;
- natijani qo'llash kabilar ⁵⁷.

Mutaxassis G.K.Slivko pedagogik texnologiyalarni quyidagi 12 ta yo'nalish bo'yicha turkumlarga ajratishni tavsiya etadi:

1. Qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik, xususiy predmetli lokalli, modulli, tor pedagogik).
2. Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, edialektik, metafizik, insonparvar, noinsonparvar, teosofiya, pragmatizm, sionizm).
3. Ruxiy rivojlanishning etakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).
4. O'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha (assochiativ-reflektorli, rivojlantiruvchi, vixevnoristik, geshtal'tehnologiya, suggestiv, neyrolingvistik)
5. Shaxs tuzilmasiga yo'naltirganlik bo'yicha (informatsion, operatsion, xayashonli ahloqiy o'zini- o'zi (rivojlantiruvchi, evristik va amaliy).
6. Mazmuni va tuzilishi harakteri bo'yicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turlicha sohaviy texnologiyalar xususiy predmetli xamda monotexnologiyalar va politexnologiyalar).

⁵⁷. Madumarov T. Kamoliddinov I. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash. Toshkent. "Talqin" 2012-yil, 3-sahifa.

7. Tashkiliy shakllar bo'yicha (sinf- dars, muqobilli, akademik, yakka tartibli, guruxli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqallashtirilgan ta'lim).
8. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali klassik o'qitish, audiovizualli texnik vositalar yordamida o'qish, "maslahatchi tizim", kitob yordamida o'qitish, printer tizimi, dasturli ta'lim).
9. Bolalar yondoshish bo'yicha (avtoritar, didaktosentrlik, shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, xamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).
10. Ustuvor metodlar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish-ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy, dialogli, o'yinli ta'lim, o'z- o'zini o'qitish ta'limi, informatsion ta'lim).
11. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida: bolalar faoliyatini faollashtirish va modallashtirish asosida: tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida: o'quv materiallarini metodik va didaktik rekonstruktsiyalash asosida; tabiatan monandlik, muqobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi).
12. Taxsil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologik, olg'a odimlovchi ta'lim to'ldiruvchi, o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari)⁵⁸

Bituvchi malakaviy ishini bajarish jarayonida birlamchi mambalar asosida mavzuga oid materiallarni, tadqiqot ishlarini olib birgan olimlarning fikr muloxazalari asosida mavzu materiallarini chuqur o'rganishga xarakat qildik. Ushbu tadqiqot ishlari materiallarini taxlil qilish shuni ko'rsatdiki, zo'ravonlik bilan xokimiyatga kelgan bol'sheviklar o'lkada chorizm yuritgan mustamlakachilik siyosatini boshqacharoq tarzda amalda mahalliy xalqlarga

⁵⁸. Селевко Г.К. Современнке образовательнке технологии. Москва 1998-года.

ko'pincha balandparvoz gaplar bilan quruq va'dalar bersa-da, ammo amalda mahalliy xalq vakillarini davlat boshqaruv ishlariga yaqinlashtirmaslik siyosatini olib bordi. Bunga Kolesov raisligida tuzilgan 15 a'zodan iborat Turkiston xalq komissarlar sovetini misol keltirishga mos keladigan g'oyalarga "harakatlarga, urinishlarga tish-tirnog'i bilan qarshi turdi. Bunday siyosat o'lkadagi demokratik kuchlar faoliyatiga tahdid qilish bilan birgalikda mahalliy xalqlarning orzu istaklarini ro'yobga chiqarishga harakat qilgan. "Turkiston muxtoriyatini jismonan qonga botirib yo'q qildi. Bolsheviklar Rossiyaning manfaatlariga mos keluvchi milliy xududiy sub'ekt sifatida TASSRni tuzib uning xaq xuquqlarini Rossiya manfaatlariga mos bosh qonuni Turkiston Avtonom sovet sotsialistik respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Bolsheviklar hokimiyatga kelgan dastlabki kunlaridanoq mahalliy aholining ma'naviyatiga, qadriyatlariga, mentalitetiga past nazar bilan qarab ularni mebsimadilar. Aksincha zo'r berib zo'ravonlik bilan qo'lga kiritilgan xokimiyatni mustaxkamlashga qaratilgan siyosat olib bordilar.

Mavzuga oid materiallar o'rganilib taxlil qilib "Turkistonda sovet xokimiyatining o'rnatilish. Turkiston muxtariyati. **(ilova 7)** "Turkistonda" sovetlar boshqaruvi tizimining mustaxkamlanishi TASSRning tashkil topish" **(ilova 8)**. Mavzularida Toshkent pedagogika kollejida pedagogik amaliyot jarayonida sinov ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazdik. Ma'ruza mashg'ulot materiallari kollej o'quvchilari tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi. Natijada o'quvchilar ta'lim jarayonida qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar tufayli:

- 1917 yilda oktyabr voqealari va uning Turkiston xalqlari hayotiga ta'siri moxiyatini bilib olishga;
- Turkistonda sovet xokimiyatining zo'ravonlik bilan o'rnatilganligiga oid ma'lumotlarni o'rganishga;
- Turkistonga muxtoriyatining tashkil topishidagi tarixiy shart sharoitlar, tarixiy xizmatlari va taqdiri xaqida bilimlar egallashga;

- Turkiston Avtonom sovet sotsialistik Respublikasining tuzilganligi xaqidagi ma'lumotlarga;
- O'lkada bol'sheviklar hukmronligining kuchayishiga oid jarayonlarni anglashga;
- Sovet hokimiyatning dastlabki yillarida o'lka bolsheviklari yuritgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy soxadagi siyosatning oqibatlarini bilib olishga muvaffaq bo'ldilar.

Mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni mashg'ulot mobaynida faol bo'lishga, mavzu materiallarini samarali o'zlashtirilishiga olib keldi.

O'quv predmeti mazmunidagi mavzuga oid materiallar asosida o'quvchilarga ta'lim berishda qo'llanilgan texnologiyalar va olimlar mutaxassislar tavsiya etgan pedagogik texnologiyalar orasida quyidagilarni samarali pedagogik texnologiyalar sifatida e'tirof etish mumkin;

- Kompyuterli axborot texnologiyasi;
- Modul texnologiyasi;
- Diagnostik texnologiyasi;
- Multimediali texnologiya;
- Interfaol usulli texnologiya;
- Muammoli o'qitish texnologiyasi;
- Differensiallash texnologiyasi;
- Dasturli ta'lim texnologiyasi;
- Masofadan o'qitish texnologiyasi;
- Mustaqil ta'lim texnologiyasi;
- Bilimni baholash texnologiyasi;
- Tarbiyalanganlikni aniqlash texnologiyasi;
- Pedagogik xamkorlik texnologiyasi;
- Mualliflik texnologiyasi;
- Boshqaruv texnologiyasi va boshqalar.

Ushbu texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Mustaqillik bergan buyuk ne'matlardan biri tariximiz va milliy qadriyatlarimizni, yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatlarini ochib berdi. Shu munosabat bilan "Sovet xokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va mavzu materiallarini o'qitish texnologiyalari" mavzusida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi.

O'MKXTda o'qitilayotgan O'zbekiston tarixiga oid O'quv adabiyotlarida o'lkada bol'sheviklar o'rnatgan rejim chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatini davomi, vorisi ekanligi xolisoni to'g'ri e'tirof etildi. Ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga ta'lim berishda boy manbalar hamda materiallar to'plandi.

Mamlakatimizda ta'lim soxasida amalda oshiralayotgan isloxatlar tufayli O'rta maxsus kasb xunar ta'limini davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi ushbu ta'lim bosqichining mazmunini butunlay o'zgarishga va milliy istiqlool g'oyalari bilan uyg'unlashishiga olib keldi.

O'MKXTning davlat ta'limi standartlari va ta'lim jarayonining mazmun-moxiyatiga oid xuquqiy me'yoriy xujjatlarda tarix fani o'quv predmetining mazmuni to'liq asoslab berildi. Jahon tarixi va O'zbekiston tarixi fanlari mazmunida XX asr va XXI asr boshlarida jahon xamjamiyati va O'zbekistonda sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy jarayonlar tarixiy nuqtai nazardan talqin berildi.

Ta'lim soxasida amalga oshirilayotgan isloxatlarning bosh maqsadi zamon talabi darajasida yaratilgan o'quv fanlari materiallarini o'quvchilarga samarali etkazish, tarix fani darslarida boy tariximiz va ma'daniy merosimiz bilan o'quvchilarni tanishtirish orqali xalqimizga, Vatanimizga, Prezidentimizga sodiq vatanparvar kishilarni tarbiyalashdan iboratdir. Bu dolzarb masalani amaliyotga tadbiq etishda tarix ta'limida ko'plab innovatsion pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumati tomonidan ta'lim soxasidagi samaradorlikni oshirishga xizmat

qiluvchi texnologiyalarning ijodkorlari moddiy va ma'naviy jixatdan muntazam rag'batlantirilib borilmoqda.

Ta'lim soxasida tarix fani materiallarini o'qitishda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar rang-barang bo'lib, ularning mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilishi mavzuga oid materiallar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishga, mashg'ulotlarning tushunarli bo'lishiga, o'quvchilarni saloxiyati va iqtidorini ro'yobga chiqarish bilan birgalikda, ta'limning samarali bo'lishiga, mavzu materiallarini o'uvchilar tafakkurida mustahkam o'rnashib qolishiga olib kelinmoqda.

Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар

I Президент Ислом Абдуғаниевич Каримовнинг асарлари ва сўзлаган нутқлари

- 1.1. Каримов И. А. Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар XII чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий кенгашининг X-сессиясида 1992- йил 2-3-июлда сўзлаган нутқи. Тошкент “Ўзбекистон” II-жилд 1996- йил, 3-36 саҳифа.
- 1.2. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Тошкент “Ўзбекистон” II-жилд 1996- йил, 36-86-саҳифа.
- 1.3. Каримов И. А. Буюк келажагимизнинг ҳуқуқий кафолати. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг бир йиллигига бағишланган тантанали йиғилишда 1993-йил 7-декабрдаги сўзлаган нутқи. Тошкент “Ўзбекистон” II-жилд 1996- йил, 92-112-саҳифалар.
- 1.4. Каримов И. А. Ватан мангу қолади. Ўзбекистон мустақиллигининг 4 йиллиги муносабати билан 1995-йил 31-август куни ўтказилган тантаналарда сўзлаган нутқи. Тошкент “Ўзбекистон” IV-жилд 1996- йил, 15-18-саҳифалар.
- 1.5. Каримов И. А. Юксак маънавиятсиз келажак йўқ. “Маънавият ва маърифат” Республика жамоатчилиқ маркази раҳбарияти ҳамда бошқарув (маркази) аъзолари билан учрашувда. 1996-йил 4-сентябрда сўзлаган нутқи Тошкент “Ўзбекистон” V-жилд 1997- йил, 145-151-саҳифалар.
- 1.6. Каримов И. А. Янгича тафаккурга кенг йўл. Халқ депутатлари Андижон вилояти кенгаши сессиясида 1997-йил 30-

апрелда сўзлаган нутқи. Тошкент “Ўзбекистон” VI-жилд 1998- йил, 5-9-саҳифалар.

- 1.7. Каримов И. А. Юксак ҳуқуқий тафаккур-демократик жамият тақозаси. Тошкент “Ўзбекистон” VI -жилд, 25-31-саҳифалар.
- 1.8. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент “Ўзбекистон” VI -жилд 1997-йил, 131-саҳифа.
- 1.9. Каримов И. А. Замонавий кадрлар-тараққиётимизнинг муҳим омилидир. Тошкент “Ўзбекистон” 1997-йил VI -жилд, 262-268-саҳифалар.
- 1.10. Каримов И. А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX-сессиясида 1997-йил 29-августда сўзлаган нутқи. Тошкент “Ўзбекистон” 1998-йил VI-жилд, 324-347-саҳифалар.
- 1.11. Каримов И. А. Соғлом авлод тарбияси барчамизнинг муқаддас-инсоний бурчимиз. Соғлом авлод дасурини тасдиқлашга бағишланган тантанада сўзлаган нутқи. Тошкент “Ўзбекистон” 2000-йил 27-саҳифалар.
- 1.12. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент “Ўзбекистон” 1998- йил 31-саҳифалар.
- 1.13. Каримов И. А. Жамиятимиз мафқураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. “Тафаккур” журнали Бош таҳририятининг саволларига жавоблар, “Тафаккур” журнали 1998-йил, 2-сон.
- 1.14. Каримов И. А. Юксак маънавият энгилмас куч. Тошкент Маънавият 2008-йил.

- 1.15. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.
Тошкент “Ўзбекистон” 2011-йил, 439-саҳифа.

II Мавзуга оид ҳуқуқий меъёрий ҳужжатлар

- 2.16. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Асосий қонун.
Тошкент “Ўзбекистон” 2012-йил.
- 2.17. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисидаги” қонуни. Тошкент
“Ўзбекистон” 1997-йил.
- 2.18. Ўзбекистон Республикаси Кадрлаш тайёрлаш миллий дастури.
Тошкент “Ўзбекистон” 1997-йил.
- 2.19. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Академик
лицейлар ва касб-ҳунар коллежларини ташкил этиш ва уларнинг
фаолиятини бошқариш тўғрисида” 1998-йил, 24-февралда қабул
қилган қарори.
- 2.20. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг. “Ўзбекистон
Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини
такомиллаштириш тўғрисидаги” 1998-йил, 27-июлда қабул қилган
қарори.
- 2.21. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг уч китобдан
иборат “Ўзбекистоннинг янги тарихи”ни нашрга тайёрлаш ва
нашр этиш ҳақида 1996-йил 13-декабр қарори.
- 2.22. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Соғлом
авлод” давлат дастури тўғрисида”ди 2000-йил 15-феврал қарори.
- 2.23. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўрта махсус,
касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш
тўғрисида”ги 2000-йил 16-октябр қарори.
- 2.24. Ўзбекистон давлат стандарти, Ўзбекистонда узлуксиз таълим
стандартлари давлат тизими. Ўрта махсус, касб ҳунар таълими

умумтаълим фанлари. 200-йил 16-октябрдаги қарори сосида тасдиқланган.

2.25. Ўрта махсус, касб хунар таълимининг умумтаълим фанлари давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари. Тошкент “шарқ” 2001й.

III Мавзуга оид қўшимча адабиётлар:

3.26. Аъзамхўжаев С. Туркистон бирлиги учун. “Фан” 1995-й.

3.27. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Тошкент “Маънавият”, 2000-й.

3.28. Аъзамхўжаев С. Из историй баръбы за автономию Туркистана. Тошкент “Фан” 1996-й.

3.29. Алимова Д. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (1917-1991йй) Тошкент “шарқ” 2000-й.

3.30. Баркамол авлод орзуси. Тошкент “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” илмий давлат нашри. 2000-й.

3.31. Головонов А. Крестьянство Узбекистана: Эволюция социального положения. 1917-1937-йил, Тошкент “Фан” 1992-й.

3.32. Иброҳимов А. Султонов Х. Жўраев Н. Ватан туйғуси. Тошкент “Ўзбекистон” 1996-йил.

3.33. Иноятлов Х.Ш. Ўзбекистонда октябр революцияси Тошкент “Ўздавнашр”, 1956-й.

3.34. Иноятлов Х.Ш. Победа Советской власти в Туркистане. Москва 1978- й.

3.35. Иноятлов Х.Ш. Против фольклоризации истории победы Советской власти в Средней Азии и в Казахстане. Тошкент “Ўзбекистон” 1976-й.

3.36. Ленин В.И. Ўрта осие ва Қозоғистон тўғрисида. Тошкент 1960-й.

3.37. Мусаев М.М. Урмонов Р.Қ. Ўзбекистон тарихи Тошкент “Ўқитувчи” 1966-1975-йиллар.

- 3.38. Ражабова Р.З. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи Тошкент “Ўқитувчи” 1994-йил.
- 3.39. Соғлом авлод – бизнинг келажагимиз Тошкент “Абу али инб сино” 2000-й.
- 3.40. Шамсутдинов Р . Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. (учинчи китоб), Андижон 2004-й.
- 3.41. Шамсутдинов Р. Каримов Ш. Ватан тарихи (Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида) III китоб Тошкент “шарқ” 2010-й.
- 3.42. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Ўзбекистон Республикаси “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти” Тошкент 2006-йил, 12-том.
- 3.4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент “Шарқ” 2000-й. III том.
- 3.44. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: “Янги авлод асри” 2003-йил.
- 3.45. Ўзбекистон ССР тарихи. Тошкент “Фан” III китоб. 1971-й.
- 3.46. Ўзбекистон ССР тарихи. (қадимги даврдан ҳозирги кунгача). Тошкент “Фан” 1974-йил.
- 3.47. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Тошкент. «Ўқитувчи» 1992-йил.
- 3.48. Усмонов.Қ. Содиқов М. Ўзбекистон тарихи. Тошкент “Шарқ”, 2006-йил.

IV Мавзуга оид газета ва журналларда эълон қилинган мақолалар.

- 4.49. Аъзамхўжаев С. “Шўрои исломия” асли қандай эди. “Фан ва турмуш”, 1992-йил, 5-6-сонлар
- 4.50. Истиқлолимизнинг тарихий илдизлари. “Шарқ юлдузи” 1995-йил, 11-12-сонлар.
- 4.51. Каримов Ш. Тақдир изтироби. “Мулоқот” 1991-йил, 4-сон.
- 4.52. Мустафо Чўқаев. Туркистон советлар ҳокимияти даврида. “Эрк” газетаси, 1990-йил 17-сентябр.

4.53. Норқулов Н. Мухториятнинг тугатилиши. “Фан ва турмуш” 1990-йил 8-сон.

4.54. Мустафоева Н. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати. “Ўзбекистон тарихи” Тошкент “Фан” 2005-йил, 2-сон, 35-44-саҳифалар.

V Mavzu materiallariga oid internet saytlari.

5.55 ziyonet.uz sayti.

5.56 e-tarix.uz sayti.

5.57 uzvip.uz sayti.

5.58 eduportal.uz.

5.59 gov.uz

5.60 tdpu.uz

Glossariy

T/r	O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
1	Turkiston Muhtoriyati	The autonomy of Turkistan	Независимая Туркистан
2	Bolshe'vik	bolshevist	Большевик
3	Menshevik	menshivist	Меньшевик
4	So'l eser	Left eser	Левая эсэр
5	Revolyutsiya	revolution	революция
6	Sovet hokimiyati	The council of authority	Советской власт
7	Buyuk oktyabr satsialistik inqilobi	the Great October socialistic Revalution	Великая Октябрьская социалистическая революция
8	Oktyabr voqealari	The event of october	Октябрьская событие
9	Muvaqqat hukumat	The goverment of temporary	Временные правительства
10	Xalq komissarlar soveti	The people kommissar of council	Народная комиссарская совети
11	Butun Rossiya qurultoyi	Congress of Russia	Все Российский съезд
12	Qo'zgonon	Rebellion	восстание
13	Deputatlar soveti	The deputy council	Депутатъ совета
14	Turkiston xalq komissarlar soveti	The people Turkistan of kommissar council	Туркистанские народный комиссариат
15	Sovet istibdodi	The press of council	Надавливание совети
16	mustamlakachilik	Colony	Колония
17	Markaziy ijroiya qo'mitasi	Central public committee	Центральный испалнителни комитет
18	Sovet respublikasi	The Republic of Council	Советской Ресублики
19	Inqilob	revolution	Революция
20	Sho'rolar davri	The period of shuru	Советской перриод
21	ishchi	worker	Рабочий
22	Partiyaviylik	Batch	партиность

23	sinfiylik	classification	
24	Sho'ro hukumati	Shuru of government	Шуринская правительства
25	sovet	Council	Совет
26	O'lka	Land	Земля
27	Siyosiy kuchlar	The forces of Political	Политический сила
28	mustaqillik	independence	Независимость
29	Fuqarolik jamiyati	The society of citizenship	Гражданская общества
30	Konstitutsiya	constitution	Конституция
31	Renessans	renaissance	Ренессанс
32	Jamiyat	Society	Общество
33	Fan	Science	Наука
34	Davlat	State	Государства
35	Demokratiya	Democracy	Демократия
36	Oliy kengash	Higher board	Вишсе Совет
37	Oily majlis	Higher meeting	Вишсе митинг
38	Vazirlar mahkamasi	The founding of Ministerssics	Кабинети министрив
39	Davlat standartlari	State of standart	Государственный стандарты
40	Akademik litsey	Academic lyceum	Академическая лицей
41	Kasb hunar kolleji	The collegi of professional-handicraft	Колледжи профессиональный ремесло
42	Pedagogik tehnologiyalar	The pedagogical technology	Педагогические технология
43	Innovatsiya	Innovation	Инновация
44	II-jahon urushi	II-world war	Вторая мировая война
45	O'zbekiston tarixi	The historical of Uzbekistan	История Узбекистана
46	Jahon tarixi	The history of world	Всемирная история
47	Xarita	Map	Карта
48	ijtimoiy	Social	Социальный
49	siyosiy	Political	Политичный
50	Tarixiy meros	Historical memoryal	Исторические наследство